

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 619:617

ABDINABIYEV OTAYORJON BAXTIYOR O'G'LI

“Itlarda teri kasalliklarini davolashda fitoterapevtik vositalar”

5A440102 – Veterinariya jarrohligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy raxbar: veterinariya
fanlari nomzodi, dotsent
R.M.Tashtemirov

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I bob.	Adabiyotlar sharhi.....	15
1.1.	Itlar orasida jarrohlik, jumladan teri kasalliklarning tarqalishi, etiopatogenezi va diagnostikasi.....	15
1.2.	Teri kasalliklarini davolashda qo'llanadigan o'simlik dori vositalarining tavsifi.....	20
1.3.	Itlardagi teri kasalliklarini dorivor o'simlik preparatlari bilan davolash va oldini olish tamoyillari.....	26
	I bob bo'yicha xulosa.....	33
II bob.	Xususiy tadqiqotlar.....	35
2.1.	Tadqiqotlar obyekti va uslublari.....	35
2.1.1.	Kasallangan itlarni tekshirish usullari.....	36
2.1.2.	Qonni tekshirish usullari.....	37
2.2.	Qon cho'p o'simligining tavsifi.....	41
2.2.1.	O'simliklardan tayyorlanadigan dori vositalari.....	47
2.3.	Itlarni saqlash va oziqlantirish tartibi.....	48
2.4.	Teri kasalliklarining tavsifi.....	54
2.5.	Tadqiqot natijalari.....	59
2.5.1.	Itlar orasida jarrohlik va shu jumladan teri kasalliklarining uchrashi	59
2.5.2.	Klinik tekshirish natijalari	60
2.5.3.	Gistopatologik tekshirishlar natijalari.....	62
	Kasallangan itlalar qonini tekshirish natijalari.....	64
2.6.	Ishning iqtisodiy samaradorligi.....	68
	II bob bo'yicha xulosa.....	69
III bob.	Tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar.....	71
	III bob bo'yicha xulosa.....	76
	Xulosa.....	78
	Amaliy tavsiya.....	78
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	79
	Ilova	88

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi aholisining chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yanada yaxshiroq qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining chorvachilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarorlari Respublikamizda chorva mollarini yanada ko'paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlari o'sishini oshirish hamda ichki iste'mol bozorining to'ldirilishini ta'minlashga qaratilgan.

Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yilning mart oyida qabul qilgan «Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi PK-308 qarori asosida ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi bugun o'zining sezilarli natijalarini bermoqda. Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar sonini ko'paytirishga doir chora-tadbirlarning avvalo qishloq aholisi uchun katta iqtisodiy, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatini nazarda tutgan holda 2008 yil 21 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-842-qarori qabul qilindi.

Iqtisodiy islohatlarning qonun jihatidan ta'minlashga yo'naltirilgan bir qator tadbirlar 2009–2012 yillarda sodir etiladigan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan. Shunga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy sohaning izchil rivojlanishiga, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor berilib kelinmoqda.

I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida, yoshlarni ilm-fan imkoniyatlardan kengroq foydalanishga e'tiborni qaratgan. Respublikamizdagi tub islohotlar, dunyodagi istiqbolli yalpi o'zgarishlar sharoitida o'tmoqda. Bu esa ro'y berayotgan jarayonlar va xodisalarining ruxi,

mohiyati va kelajagini ilmiy idroq etishining juda zarurligini ta'kidlaydi. Respublikamizda barcha dolzarb muammolarni hal etishda ilm–fan o'zining salmoqli hissasini qo'shishi kerak.

Bugungi ilm–fandan nimalarni kutiyapmiz, bizning fikrimizcha, uning kuch–g'ayratlarini qaysi yo'nalishda jamlash kerak bo'ladi. Ro'y–rost aytadigan bo'lsak deb o'qtiradi Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamizning fundamental fanlarini ham fan–texnika taraqqiyotining qudratli dvigateliga aylanishiga anchagina bor, ular ishlab chiqarishda inqilobiy o'zgarishlar yasaydigan yechimlarni amalga oshirgani yo'q.

Fan–texnika taraqqiyotiga ketadigan xarajatlar xamisha o'sib borayotganiga qaramay, halq xo'jaligida jiddiy texnologiya siljishlarga erishilgani yo'q. Endilikda ilm–fan yangi yo'llar ochishi, sifat jihatdan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatni yangi holatga o'tishini ta'minlashi zarur, ilmiy–tadqiqot muassasalar ilmiy izlanishlari respublika hal etayotgan muammolarni bir qator aks ettirishi lozimligini taqidlab o'tishni xoxlardim, deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining bunday buyuk asarida. Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarni professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularni qobiliyatlarini ruyobga chiqarish uchun barcha sharoitlarini yaratish ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir.

Yuqoridagi fikrlardan shu aniq bo'ldiki – Respublikamizda chorvachilik ning taraqqiyoti veterinariya va boshqa qishloq xo'jaligi fanlarining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Fanni rivojlantirmasdan turib, amaliyotni yuqori darajaga ko'tarib bo'lmaydi. Veterinariya fanida va uning amaliyotida esa oqsoqlik sezilib turibti. Uning sabablarini o'rganish, davlatimiz fanga ajratgan grant loyixalari mablag'laridan unumli foydalanish, yuksak bilimli ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni yetishtirish, hozirgi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanishini hozirgi zamon talabi ta'qozo etadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda aholini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada veterinariya xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklandi, bunga misol qilib

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2013–yil 24–yanvardagi 15–sonli yig'ilishi bayoni bilan Respublikamizda 2013–yilda qoramollar bosh soni go'sht va sut ishlab chiqarishni ko'paytirish zooveterinariya va naslchilik xizmatini ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish va yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan chora–tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

«Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 7–son, 62–modda)

Xalqimizning asriy an'analarini hisobga olib, «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora–tadbirlar kompleksini amalga oshirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat–e'tibor muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin, quyidagilar uning ustuvor vazifalari va amalga oshirilishi yo'nalishlari etib belgilansin:

- oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunchilik va normativ–huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur shart–sharoitlar yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi zamonaviy uy–joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish, qishloq aholisini toza ichimlik suv,

tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va servis darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

- tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlarning moddiy–texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot hamshiralarining sonini ko'paytirishni ta'minlash, akusher–ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish;

- nikohga kirayotgan shaxslarning nikohdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish hamda ushbu maqsadlarda poliklinikalarni zamonaviy tashxis uskunolari bilan jihozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mustahkam oila qurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muhimligini aholi keng qatlamlari ongiga singdirishga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish;

- aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sanitariya va gigiyena, homilador ayollarning sog'lig'ini saqlash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarish qilish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, ularning ovqatlanish rasioni sifati va kaloriyasi yaxshilanishini ta'minlash;

- yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy–texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunolari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash;

- mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni, xususan, o'zaro hurmat–ehtirof, er–xotin o'rtasida, ota–onalar bilan farzandlar, qaynona–kelin o'rtasida, qo'ni–qo'shnilar o'rtasida mehr–oqibat ruhini shakllantirish;

– qiz bolalarni – bo‘lajak onalarni – jismonan sog‘lom va intellektual rivojlangan tarzda voyaga yetkazish, ularning akademik liseylar va kasb–hunar kollejlarida albatta ta‘lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb–hunarlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, ularning hayotda munosib o‘rin egallashlarida, kelajakda sog‘lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblangan hayotga bo‘lgan mustahkam nuqtai nazarni va mustaqil fikrlashni shakllantirish;

– sog‘lom bolani voyaga yetkazishda ta‘lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg‘or pedagogika va axborot–kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda boshlang‘ich ta‘limning yuqori sifatini ta‘minlash, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish tadbirlarini amalga oshirish;

– kasb–hunar kollejlari bitiruvchilarini, avvalo qizlarni ishga joylashtirish, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish ishtiyoqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy–joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste‘mol kreditlari ajratish chora–tadbirlarini ta‘minlash;

– dasturiy chora–tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xotin–qizlar va yoshlar birlashmalari, faxriylar tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu ishlarga jamiyatda hurmat va obro‘–e‘tiborga sazovor bo‘lgan keksa avlod vakillarini keng jalb etish;

– ommaviy axborot vositalari, shu jumladan elektron axborot vositalarining va Internet tarmog‘ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda «Sog‘lom ona va bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risida keng axborot–tushuntirish ishlarini tashkil etish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 10 dekabrda F–4577–son [farmoyishi](#) bilan tashkil etilgan Respublika komissiyasiga Davlat

dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yuklansin.

- bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari boshchiligida Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tashkil etilishini ta'minlasin, ularga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar so'zsiz, to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni yuklasin;

- ikki hafta muddatda vazirliklar, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan har bir davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha «Sog'lom ona va bola yili» tarmoq va hududiy dasturlari ishlab chiqilishi va qabul qilinishini;

- Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq va o'z vaqtida bajarilishiga qaratilgan ishlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari darajasida muvofiqlashtirilishini ta'minlasin, tadbirlar amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin;

- yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risidagi axborot taqdim etilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Davlat dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va chora-tadbirlar bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog'i jalb etilgan holda aholi orasida muntazam, tizimli va keng yoritilishini;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari Davlat dasturida nazarda

tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda amalda ishtirok etishi va aniq ulush qo'shishi aks ettirilgan holda uning amalga oshirilishidan keng jamoatchilik doimiy ravishda xabardor qilinishini ta'minlasinlar.

Hozirgi zamonda ham it hayvonlar orasida odam uchun yeng sodiq jonivor hisoblanadi. J.Kuvye ta'kidlashicha itlar insoniyat uchun yeng noyob, foydali va o'ta mukammal topilmalardan biridir. Inson itlarning o'ta zehnliligi, hidlarni o'tkir sezishi, yaxshi ko'rishi, yeshitishi, tez chopishi va chidamliligini oldindan sezib, ularni boshqa hayvonlarga nisbatan o'ziga ko'proq yaqinlashtirgan.

Itlardan foydalanishning barcha shakllarini va ular odamning ma'naviy dunyosini boyitishdagi rolini hisobga olmaslik qiyin. Cho'l va tog' chorvachiligida qo'llaniladigan itlar qo'y otalarini boqishda va joydan joyga ko'chirganda yordam beradi va shu ishi bilan cho'ponlarga sezilarli darajada ko'maklashadi. Itlar o'rmon qo'riqchisi, ovchi, nogiron, va qutqaruvchilarning buyruqlarini bajarib, ularning ishini va hayot tarzini sezilarli yengillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24 oktyabrdagi 364-sonli qaroriga asosan bojxona va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining kinologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish maqsadida Milliy kinologiya markazi tashkil etilishi va uning vazifalari belgilanishi bu sohaning istiqbollari yanada ochadi.

Itlarni ko'paytirish, saqlash va xizmat ishlariga tayyorlash uchun mo'ljallangan xo'jaliklarda sog'lom hayvonlarni o'stirish va ulardan sifatli hamda to'lig'icha foydalanishni ta'minlashda veterinariya fani va amaliyot mutaxasislari oldida kata vazifalar turibdi, chunki faqat sog'lom hayvon barcha talablarga javob berishi mumkin. Turli maqsadlar uchun qo'llanadigan hayvonlar saqlanadigan xo'jaliklarda ma'lum bo'lgan muammolarning eng dolzarbligi – ularning sog'ligidir. Shu jumladan hayvonlardagi teri kasalliklari ularning immun tizimiga salbiy ta'sir qiladi va natijada tashqi muhit ta'sirlariga moslashishga, sifatli xizmat ishini bajarishga va xayot uchun kurashishga keskin xalaqit beradi.

Ayrim xo‘jaliklarda teri kasalliklari 22,5 dan 60–70% gacha tashkil etadi. Shundan 20–30% i kasal hayvonlar keyinchalik yuqori ekspluatasion ya’ni xizmat sifatlarini yo‘qotishri mumkin.

Shulardan kelib chiqan holda biz itlarda uchraydigan teri kasalliklar etiologiyasida, davolash va profilaktikasi chora tadbirlarini bajarishda uchraydigan muammolarni kam bo‘lsada yechishga o‘z xissamizni qo‘shishga qaror qildik.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Hayvonlardagi va bevosita itlardagi mavjud patologiyalar orasida ichki yuqumsiz kasalliklaridan keyin yetakchi o‘rinlardan birini jarrohlik kasalliklar egallaydi (A.D. Belov, M.V. Plaxotin, B.A. Bashkirov va boshq., 1990; P.Ye. Ignatov, 1995; V.A. Lukyanovskiy, 1995; A.A. Arxipov, A.B. Korobov, 1999; P.M. Vasilyev, 1999; A.N. Valeyeva, 2000; M. Nagata, 2000; Ye.A. Tarasova, 2005; T.T. Bitsiyev, 2012)

Itlardagi teri kasalliklarini ayniqsa ko‘p uchraydigan dermatit va ekzemalarni mavjud usullar va vositalar bilan davolash hardoim ham kutilayotgan natijalarni bermaydi. Davolash samarasining pastligi davolash kech boshlanishi, tavsiya etiladigan vositalarning qiyin topilishi va ularni noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadi. Hayvonlarni davolashda nafaqat o‘simliklarning o‘zi, balki ulardan tayyorlangan preparatlar ham keng qo‘llanadi (A.N. Alefirov, 2002; R.A. Xasanova, 2005; A.V. Sapojnikov 2006; A.B. Smirnov, 2010; <http://beautyinfo.com.ua/m0c2i691.html>; <http://www.travolekar.ru/articles/pract/wund.htm>; <http://malva.ucoz.ru/forum/14-1171-1>; <http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>; <http://doktor.uel.su/ar2/articles/default.htm>; http://www.callisia.org/cistotel_dir/).

T.T. Bitsiyev (2012) takidlashicha 2009 yilda jami 1422 kasal itlar qabul qilinib, 614 tasida jarrohlik, 483 tasida akusher – ginekologik, 325 tasida terapevtik kasalliklar topildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlarda 291 jarohatlarga (47%), 174 yallig‘lanish jarayonlar va o‘smalarga, 149 oyoqlarning suyak sinishlariga to‘g‘ri keladi.

A.V. Sapojnikov (2006) bo'yicha, optimal davolash yo'llarini topish, patogenetik asoslangan davolashni belgilash, toksik – allergik holatlarni rivojlanishiga olib keladigan medikametoqli terapiya xajmini qisqartirish veterinariyaning aktual muammosi bo'lib qolmoqda. Buning uchun umumiy va mahalliy intoksikasiyani pasaytiruvchi usullarni qo'llash, organizmning ximoya kuchlarini oshirish va organizmning adaptasion – moslashuvchi qobiliyatini kuchaytirish lozim.

Bunday vazifalarni tibbiyot va veterinariyada qadimdan qo'llanib kelgan dorivor o'simliklar bajarib kelgan. O'simliklar poyasi, bargi, urug'i, tomiri va boshqa qismlaridan tayyorlangan yig'malar yordamida rivojlanadigan yallig'lanishni va infeksiya rivojlanishini oldini olish, yallig'lanishning har xil bosqichlarida esa uning tarqalishini to'xtatish mumkin (A.B. Smirnov, 2010).

Hayvonlardagi kasalliklarning kechishiga aralashish uchun zamonaviy fitopreparatlarning ta'sir spektri to'g'ri keladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda ularga vrachlar va hayvon egasining qiziqishi oshgan (Lipin Sanin, 2008; <http://www.reddogfoto.ru/pitomnik>).

R.A. Xasanova (2005); <http://beautyinfo.com.ua/m0c2i691.html>, ta'kidlashicha, uy hayvonlarini nafaqat kimyoviy dorilar bilan, balki dorivor o'tlar bilan ham davolash mumkin. Hammaga ma'lum choylar va yig'malar ham odamlarga ham itlarga yordam beradi.

<http://www.travolekar.ru/articles/pract/wund.htm> - A.N. Alefirov (2002) ma'lumotiga ko'ra, jarohatlarni davolashda fitoterapiyani quyidagi maqsadlarda qo'llaydilar:

1. Qonni to'xtatish.
2. Jarohatga tushgan va yallig'lanishni qo'zg'atadigan mikroblarni yo'qotish.
3. Jarohat bitishini tezlashtirish.

Dunyo veterinariya amaliyotida qo'llanadigan kalanxoe, zupturnum (podorojnik), oddiy qarag'ay, archa, chayono't, eleuterokokk, sarimsoq piyoz, arpabodiyon, momoqaymoq yoki qoqi, rayxon, tirnoqgul yoki kalendula va yana

ko'p o'simliklar yallig'lanishga va allergiyaga qarshi ta'sir etuvchi, haroratni tushiruvchi, jarayonlarni bitgazuvchi, kuyishlarni tuzatuvchi, sog'lomlashtiruvchi, qonni to'xtatuvchi va og'riqsizlantiruvchi xususiyatlariga ega (<http://malva.ucoz.ru/forum/14-1171-1>; <http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>; <http://doktor.uel.su/ar2/articles/default.htm>; http://www.callisia.org/cistotel_dir/).

Hayvonlarni davolashda nafaqat o'simliklarning o'zi, balki ulardan tayyorlangan preparatlar ham keng qo'llanadi. Masalan, yageldan olingan antibakterial preparat – natriy usinati, arnikadan – “Traumel” malhami, zveroboydan – “Imanin” (Novoimanin) preparati, kalanxoedan – kombinasiyalashgan preparat Kalanxin, chaga nomli oq qayin zamburug'idan “Ranion” preparati ishlab chiqilgan (A.N. Alefirov, 2002; I.S. Raksina, 2012; <http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>).

Yo'qorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, biz Samarqand shahri va viloyatida itlar orasida teri kasalliklarining tarqalishi hamda ularni fitopreparatlar bilan davolashni o'rganishni qaror qildik.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Ilmiy tadqiqot ishlari 2012–2014 yillarda Samarqand qishloq xo'jalik institutining «Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohlik va farmakologiya» kafedrasida qoshidagi veterinariya klinikasida, Samarqand viloyat xizmat itlari pitomnikida hamda markaziy shifoxonasi laboratoriyasida o'tkaziladi.

Ilmiy tajriba klinikaga keltirilgan 10 bosh kasallangan itlarda olib boriladi. Ularning saqlash, oziqlantirish sharoitlari tenglashtirilib, ular 5 boshdan 2 guruhga ajratiladi. Har bir hayvonda kasallikning bosqichlari, patogenez va hayvonning umumiy xolati aniqlanadi. Har bir guruh itlarda davolash usullari kasallikning darajasiga qarab tanlanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur ilmiy ishni boshlashda bizlar o'z oldimizga quyidagi maqsadlarni va vazifalarni qo'ydiq: kasallangan itlarda jarayon biologiyasini o'rganish, zararlangan to'qimalarda morfologik o'zgarishlarni aniqlash va o'rganish.

Samarqand shahrida itlar orasida jarrohlik kasalliklar va shu jumladan teri kasalliklarining tarqalishini aniqlash.

Davolash mobaynida itlar qonini laborator tekshirish.

Itlarning individual xususiyatlari va patologik jarayonining og'irligini hisobga olgan holda teri kasalliklarini davolashda dorivor o'simliklardan olingan davolash preparatlarini samarali ta'sirini aniqlash.

Ilmiy yangiligi. – kasallangan itlarni davolashda umum qabul qilingan davolash usullari va qon – cho'p dorivor o'simligidan tayyorlangan preparatning davolovchi ta'siri qiyosiy baholanadi;

– kasallikning turli bosqichlariga bog'liq holda davolash usullarining samaradorligi aniqlanadi;

– itlardagi teri kasalligining obektiv klinik manzarasi olinadi va o'rganiladi;

– teri kasalligining har xil bosqichlardagi qiyosiy tashhisi qo'yiladi;

– itlar qonning morfologik taxlili bajariladi va ko'rsatkichlari to'qimadagi morfologik o'zgarishlar bilan taqqoslanadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

1. Teri kasalligini davolashda an'anaviy usullarga qo'shimcha Qon – cho'p o'simligidan tayyorlangan dorivor vositani tavsiya etamiz.

2. Qon – cho'p o'simligidan tayyorlangan dorivor vositani qo'llash kasallik bitishida granulyatsion to'qima o'sishini normallashtiradi.

3. Qon – cho'p o'simligidan tayyorlangan dorivor vosita qo'llanganda kasal itlarning qonidagi tez vaqtda meyorgacha tiklanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Davolashning samarasi kasallik alomatlarining pasayishi hamda gematologik ko'rsatkichlarning normallashtirish natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Hayvonlar muntazam tekshirib turiladi, tana harorati o'lchanadi.

Har bir gurux hayvonlarda davolash usullari kasallikning darajasiga qarab tanlanadi.

Teri kasalligiga ertachi tashhis qo'yish, etiologiyasini aniqlash maqsadida barcha kasallangan hayvonlarning soni, kasallikning tarqalish darajasi aniqlanadi.

Kasallikning barcha bosqichlarda qon tarkibidagi eritrotsitlar soni (Goryayev sanoq to'ri yordamida), periferik qondan tayyorlangan surtmalarda leykoformula, qondagi gemoglobin miqdori (Sali gemometri yordamida) aniqlanadi.

Ishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda oldi olingan zarar, veterinariya tajribalari uchun xarajatlar va xarajatlar qoplami, klinik va laboratoriya tekshirish natijalari hisobga olinadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Kasallangan itlarni tekshirish va davolashda Qon – cho'p o'simligidan tayyorlangan dorivor vositani qo'llash natijalari teri kasalligini ertachi bosqichlarda samarali davolash usulini tanlashga imkon beradi, olingan ma'lumotlar klinik o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin.

Tekshirishlarning asosiy natijalari 2015 va 2016 yillarda bo'lib o'tgan SamQXI ilmiy konferensiyasida taqdim etildi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya 96 bet kompyuter yozuvida bajarildi. Unga kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqotlar obyekti va uslublari, tajribalarning natijalari, tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar, xulosalar, amaliy tavsiya, 11 jadval va 90 ta adabiyotlardan tashkil topgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat xususiy tadqiqotlar kiradi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Samarqand shahrida itlar orasida jarrohlik kasalliklar va shu jumladan teri kasalliklarining monitoringi.

Itlardagi teri kasalligini kompleks davolashda Qon – cho'p o'simligidan tayyorlangan dorivor vositani qo'llash natijalari.

Kasal itlar qonining morfologik ko'rsatkichlari.

I. ADABIYOTLAR SHARXI

1.1. Itlar orasida jarrohlik va shu jumladan teri kasalliklarning tarqalishi, etiopatogenezi va diagnostikasi

T.T. Bitsiyev (2012) ma'lumot berishicha, Vladikavkaz shahrida itlar orasida yuqumsiz kasalliklarning tarqalish monitoringini o'tkazishda quyidagilar aniqlandi: 2007 yilda jami 1100 kasal itlar qabul qilinib, 480 tasida jarrohlik, 202 tasida akusher – ginekologik, 418 tasida terapevtik kasalliklar topildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 192 jarohatlarga, 156 yallig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 132 oyoqlarning suyak sinishlariga to'g'ri keladi. 2008 yilda jami 1350 kasal itlar qabul qilinib, 521 tasida jarrohlik, 426 tasida akusher – ginekologik, 403 tasida terapevtik kasalliklar topildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 225 jarohatlarga, 134 yallig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 162 oyoqlarning suyak sinishlariga to'g'ri keladi.

2009 yilda jami 1422 kasal itlar qabul qilinib, 614 tasida jarrohlik, 483 tasida akusher – ginekologik, 325 tasida terapevtik kasalliklar topildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 291 jarohatlarga, 174 yallig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 149 oyoqlarning suyak sinishlariga to'g'ri keladi.

Olingan ma'lumotlar analizi ko'rsatishicha, umumiy jarrohlik patologiyadan 2007 yilda jarohatlar 40% ni, 2008 yilda 43,1% ni, 2009 yilda 47% ni tashkil qilgan.

Hayvonlar patologiyalari orasida yuqumsiz kasalliklaridan keyin yetakchi o'rinlardan birini jarrohlik kasalliklar egallaydilar.

R.M. Vasilyev (1998) va V.A. Lukyanovskiy (1995) lar takidlashicha, oxirgi yillarda mayda uy hayvonlarning (it va mushuklar) populyasiyasi sezilarli ko'paymoqda va bu hol ayniqsa katta shaharlarga tegishlidir.

Chegaralangan maydonda hayvonlarning katta konsentrasiyasi ular orasida turli kasalliklar tarqalishiga olib keladi, bunda teri kasalliklari katta foizni egallaydi. Bu kasalliklar orasida eng ko'p piodermiya, dermatomikoz, allergik dermatitlar uchraydi (P.Ye. Ignatov, 1995). Teri kasalliklariga chalingan itlarda

ko'p hollarda buyrak, jigar, ichak kasalliklari ham kuzatiladi (V.M. Korshunov, 1990).

Dermatomikozlar bilan kurashish muammosi xozirgi kunda ham aktual bo'lib turmoqda (I.M. Bondarev va boshq., 1997). Yirik shoxli hayvonlarning trixofitiyasi Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrikaning 113 davlatlarida tarqalgan bo'lib, chorvachilikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Trixofitiya bilan kurashish uchun qo'llanadigan davolash – profilaktik vositalar ko'p miqdorda borligiga qaramasdan, yangi, ko'proq samara beradigan preparatlarni topish, ayniqsa o'simliklardan olinadiganlarni, hali ham aktual bo'lib qolmoqda (Hall F, 1996).

Ye.V. Shabalina (2009) ta'kidlashicha, davolash samarasini aniqlashga bo'lgan zamonaviy yondashish, bizlarni uning yangi monitoring usullarini izlashga majbur etadi. Vrach faqat klinik manzaraning ma'lumotlariga tayanib, hayvonni ko'r – ko'rona davolagan vaqtlar o'tib ketdi. Laboratoriya yordamiga tayanib biz qandaydir darajada kasallikning kechishini nazorat qilishimiz va o'tkazilgan terapiyaga qo'shimcha vositalarni kiritishimiz mumkin. Ammo bu ko'p sonli testlar orasida qimmatlilari va ko'p mexnat talab qiladiganlari mavjud. Doimo davolash sxemasini korreksiya qilish va vositalar miqdorini individual tanlashda qo'llanadigan informativ, oson bajariladigan va oddiy texnologiyalar qidiriladi. Bunday usullardan bittasi – mikroelektroforezga asoslangan endotoksikozning ekspress–diagnostika usulidir.

Dermatitlar asosan 5 yoshgacha bo'lgan va kamroq hollarda katta yoshli itlarda kuzatiladi. Bu kasallik qandaydir bir jinsda ko'proq uchrashi aniqlanmadi. Ekzemalar barcha yoshdagi hayvonlarda uchraydi, ammo 2–3 yoshli urg'ochilarda va 2–9 erkak itlarda ko'proq qayd etildi. Erkak itlarda ekzemalar 1,5 marta ko'proq kuzatiladi. Zararlanish lokalizatsiyasi doimiy joyga ega bo'lmay, turli sohalarda rivojlanadi. Ekzema va dermatitlar ko'pincha metislarda rivojlanadi.

A.N. Valeyeva (2000) ta'kidlashicha, itlarda tarqalgan kasalliklar orasida teri kasalliklari asosiy tashvishni keltiradi. Ular itchilikka o'lgan zarar yetkazadi,

qaysikim jun qoplamasi sifatining pasayishi, eksteryer buzilishi, davolash xarajatlarining ko'pligi va boshq. tashkil qiladi.

Ekzema va dermatitlar diagnostikasining murakkabligi – ular polietilogik bo'lib, bir vaqtda turli yallig'lanish, allergiya va mikroblarga qarshi ta'sir qiladigan dori vositalar qo'llanishini talab qiladi. Ammo bu vositalar organizm sensibilizasiyasini chaqirib, allergik reaksiya hosil bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat kompleks davolash uchun yangi preparatlarni yaratishga turtki beradi.

Ekzema va dermatitlarda kasallik etiologiyasini hisobga olmasdan, ko'pincha simptomatik davolash muolajalari bajariladi. Ammo bunday davolash uzoq muddatli, ko'p mehnat talab etuvchi, qimmat bo'lib, to'liq tuzalishga olib kelmaydi. Shuning uchun teri kasalliklarining diagnostikasi va terapiya masalalari hali ham o'z yechimini kutib turmoqda.

Teri murakkab va ko'p funksional a'zo bo'lib, zararlovchi omillarga to'sqinlik qiladi, uning ximoya mexanizmlari organizmga mikroblar kirishiga yo'l qo'ymaydi. Teri termoregulyasion, sekretor va boshqa muhim funksiyalarni bajarganligi sababli o'ziga nisbatan doimiy e'tiborni talab etadi. Ammo astoydil parvarishga qaramasdan, it egalari turli teri kasalliklari masalan, ekzema va dermatitlar bilan tez – tez to'qnashib turadilar. Bu kasalliklar esa oxirgi vaqtda juda tarqalib ketgan bo'lib, ko'pincha noto'g'ri oziqlantirishdan masalan, rasionda qiyin xazm bo'ladigan go'sht yoki yuqori uglevodli ozuqalar (bo'tqa, non, kartoshka) mavjudligi; poliz maxsulotlari va vitamin – mineral qo'shimchalarning yo'qligidan kelib chiqadi. Bu omillar esa energiya, protein, uglevod, vitaminlar balansining buzilishiga olib keladi. Ular iliq xonalarda kam harakatchan hayot tarzi bilan birgalikda uyg'unlashib, xazm tizimi va shu jumladan jigar kasalliklariga olib keladi va teri – jun tizimi faoliyatini hamda tuzilishini o'zgartiradi (A.A. Arxipov, A.B. Korobov, 1999).

Tashqi muhitda ekologik muvozanatning buzilishi, xalq xo'jaligida zaharli ximikatlarning qo'llanishi, itlarni cho'militrish uchun yuvish vositalarini, insektisid, akarisidlarni tartibsiz qo'llash kabi omillar hayvonning a'zolari va

to'qimalarida va shu jumladan terisida o'zgarishlarni chaqiradi. Natijada teri sensibilazasiyaga uchrab tashqi va ichki muhitlarning salbiy ta'sirlariga sezuvchan bo'lib qoladi.

Junlari uzun va dag'al itlar bu kasalliklarga ko'proq chalinadi chunki ularning terisi ko'proq sezuvchan va nozik bo'ladi va bunday itlarning junlari tez – tez olinishi sababli ko'proq mexanik ta'sirga chalinadi. Chiroylilik orqasidan quvib it egalari qattiq, shikastlaydigan shchyotkalarini qo'llaydi va shu bilan teriga qo'zg'atuvchi ta'sir o'tkazadilar.

Teri anatomik va reflektor ichki a'zolar bilan bog'langan bo'lgani sababli u turli a'zo va tizimlarda hosil bo'lgan patologiya to'g'risida birinchi bo'lib darak beradi. Noto'g'ri oziqlantirish, nerv boshqarilishi va gormonal muvozanatning buzilishi, organizmda vitaminlar ko'p yoki kam bo'lishi natijasida terining ta'sirlarga qarshiligi buziladi. Jigarning antitoksik va buyraklarning ayirish funksiyalari buzilganda terining ayirish faoliyati oshadi ya'ni unga yuklanish ko'proq tushadi (A.D.Belov, M.V.Plaxotin, B.A. Bashkirov va boshq., 1990; V.A. Lukyanovskiy, 1998).

Har xil mualliflar ma'lumotlari bo'yicha (A. A. Arxipov, A.B. Korobov, 1999; P.M. Vasilyev, 1999; M. Nagata, 2000; Ye.A. Tarasova, 2005) hayvonlarning barcha kasalliklari orasida jarrohliklari 40% ni tashkil qiladi va shulardan itlar terisining kasalliklari 22,5 dan 60–70% gacha yetadi. Teri va uning hosilalari doimo tashqi muhitning har xil ta'sirlariga chalinadi. Ularning ko'pchiligi terida turli patologiyalar rivojlanishini chaqirishi mumkin. Boshqa holatlarda teri va uning hosilalaridagi patologik o'zgarishlar butun organizm hamda uning alohida a'zo va tizimlari kasallanishiga sabab bo'lishi mumkin (A.B. Siganko, 2000).

Oxirgi vaqtda teri kasalliklari bilan kasallangan itlarni davolash muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib turibdi. Itlarda ko'pincha ekzema va aknelar uchraydi (A.N. Valeyeva, 2000).

Ekzemalar diagnostikasi va davolanishining qiyin kechishi ular polietilogik bo'lishi va kompleks terapiyani talab etishidadir (T.V. Melnik, 2002).

N.V. Sazonova ma'lumot berishicha, itlarni xonakilashtirish vaqti tosh asrning oxiriga to'g'ri keladi. Hali 14 ming yillar avval odamda xonakilashtirilgan it va boshqa hayvonlar bo'lgan.

Xozirgi vaqtda yer yuzida 400 ga yaqin it zotlari mavjud. Ular xizmat, ovchi va dekorativlarga bo'linadi.

Turli zotlarga mansub itlarning ish va xarbiy faoliyat turlarini sanab o'tish qiyin. Itlar yovvoyi hayvonlarni ovlash va sport ovida, chegarani qo'riqlashda, shimolda odam va yuklarni tashishda, cho'ponga yordamchi sifatida, qoravullik xizmatida va boshq. qo'llanilishi hammaga ma'lum. It izquvar, sanitar, gaz manbasini topuvchi, mina topuvchi, aloqachi, geolog, qutqaruvchi, sirk artisti, tadqiqot muassasalarda tadqiqot hayvoni sifatida muhim vazifalarni bajaradi. Kosmosni zabt etishda ham itning xizmati katta.

Dekorativ it zotlari amaliy ahamiyatga ega emas, ammo odamlar ularni original eksteryeri va egasiga nisbatan sadoqatligi uchun qadrlaydilar.

Kichik uy hayvonlarini ko'paytirish va saqlashga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan oxirgi vaqtda ularning miqdori sezilarli ko'paygan (M.V.Shustrova, 1995). Itlarning bosh soni ko'payishi bilan ulardagi yuqumsiz kasalliklari ham ko'paygan, bu kasalliklarning yarmi esa jarrohlik kasalliklar tashkil qiladi. Jarrohlik kasalliklar orasida teri patologiyasi, ayniqsa ekzemalar ko'p foizni egallaydilar (Lukyanovskiy V.A., 1995).

Teri va junning holati hayvon egalari uchun tez – tez tashvish manbayi bo'lib turadi. Ammo uy hayvonlarini gipodinamiya va qoniqarsiz ekologik muhitda zamonaviy saqlash sharoitlari, noto'g'ri oziqlantirish va tartibsiz urchitish kabi omillar hayvonlar kasallanishiga, birinchi navbatda almashinish genezi buzilishiga sabab bo'ladi (T.V. Melnik, 2002). Shuning bilan birga klassik terapiyaga “bo'yo'nmaydigan”, kelib chiqishi va patogenezini yetarlicha o'rganilmagan “idiopatik” teri kasalliklarining miqdori ko'paygan. Oxirgi vaqtda

ko'pchilik teri kasalliklarining klinik kechishi sezilarli o'zgargan (patomorfoz) bo'lib, differensial tashhisni yanada qiyinlashtiradi (L. V. Matveyev, 2000). Vaholanki, aniq tashhis qo'yish kasallik oqibatini va davolash taktikasini aniqlashda hamda optimal profilaktik tadbirlarni tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning barchasi etiologik tashhisni qo'yish uchun diagnostik usullarni takomillashtirishni talab etadi.

Ma'lum it zotlarning mashxurligi va shundan kelib chiqan holda hayvonlar sog'ligini inobatga olmasdan ularni yoppasiga urchitish sababli idiomatik kasalliklar sirasiga kiruvchi ayrim kasalliklar oxirgi vaqtda ayniqsa aktual bo'lib qolgan (N. N. Moskovkina, M. N. Sotskaya, 2000).

Amerika kokker–spaniyelarning birlamchi seboreyasi zot ichida juda tarqalib ketganligi ko'p tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib turibdi (S. Paterson, 2000). Kokkerlarga hos keratinizasiyaning buzilishi idiomatik kasalliklar qatoriga chiqarilgan va ular davolab bo'lmaydigan bo'lib hisoblanadi (D. G. Karlson, D. Giffin, 1996; D. Lloyd, K. A. Marsh, 2000; M. Nagata, 1999).

Nemis ovcharkalarning dermatopatiyasi "It kasalliklari" spravochnigida "Ovcharkalar piodermiyasi" deb nomlanib, alohida kasallik sifatida ajratilgan (X. G. Nimand, P. B. Suter, 2001). Bu zotga hos o'tkir nam dermatit, pododermatit, otit va ayrim boshqa kasalliklar ham idiomatik kasalliklar ya'ni etiologiyasi noaniqlarga kiradi. Shundan kelib chiqqan holda, bunday patologiyalar korreksiyasi uchun faqat simptomatik davolash qo'llanadi (K. S. Medvedev, 1999; R. Myuller, 2000 va boshq.).

1.2. Teri kasalliklarini davolashda qo'llanadigan o'simlik dori vositalarining tavsifi.

A.V. Sapojnikov (2006) bo'yicha, oxirgi yillarda teri – muskul shikastlanishlarida yallig'lanish jarayonlarning og'ir kechishiga moyillik kuzatiladi. Optimal davolash yo'llarini topish, patogenetik asoslangan davolashni belgilash, toksik – allergik holatlarni rivojlanishiga olib keladigan medikamentozli terapiya xajmini qisqartirish veterinariyaning aktual muammosi bo'lib qolmoqda. Umumiy va mahalliy intoksikasiyasini pasaytiruvchi usullarini qo'llash, organizm

ximoya kuchlarini oshirish va organizmning adaptasion – moslashuvchi qobiliyatini kuchaytirish lozim.

O.I. Yeliseyeva, (2004) bo'yicha, amaliy chorvachilik sharoitida mikrobl (pirogenal, prodigiozan, bio–stim, ribav, bronxomunal), hayvonot (timalin, T–aktivin, xitozan, plasenta preparati, neogestol, biostimulgin), o'simlik (estifan, bioinfuzin, erakond, spirustim), sintetik (levomizol, timogen, immunofan, poludan) vositalar qo'llanadi.

Sintetik preparatlar ko'proq toksik bo'lib, qiyin boshqariladigan autoimmun patologiyalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ayrim lipopolisaxaridlar, ad'yuvantlar, mediatorlar infeksiya patologiyani og'irlashtiradi va hatto hayvon o'limiga olib keladi (**N.A. Zolotareva, 2003**).

Jarrohlik patologiyada yallig'lanish reaksiya ingibitorlarini kiritilganda kasallik belgilari yo'qotiladi ammo qo'zg'atuvchining tarqalishiga to'sqinlik qilinmaydi. O'simlik ashyolaridan olinadigan vositalar kuchsizroq ta'sir qiladi, ammo ular organizmga yumshoqroq ta'sir qilib, asoratlarni chaqirmaydi, bu esa yangi tug'ilgan hayvonlarning hali yetilmagan T va V – limfositlari uchun juda muhim (**B.M. Avakayans, 2001**).

<http://beautyinfo.com.ua/m0c2i691.html>, **R.A. Xasanova (2005)** ta'kid – lashicha, uy hayvonlarini nafaqat dorilar bilan, balki dorivor o'tlar bilan ham davolash mumkin. Hammaga ma'lum choylar va yig'malar ham odamlarga ham itlarga yordam beradi. Ularni ishlab chiqish texnologiyasi oddiy. O'simlik yig'malari ichki va tashqi qo'llanish uchun ishlatiladi. Qo'llanish usuliga qarab, yig'malar bir nechta turlarga bo'linadi.

Fitoterapiya eng qadimiy tibbiyot tizimi bo'lib hisoblanadi. U nafaqat og'riqlardan halos etadi, balki butun organizmning funksiyalarni tiklaydi va natijada tabiiy tuzalishga olib keladi.

Xozirgi vaqtda tibbiyotda juda qadimdan ma'lum bo'lgan 2000 yaqin dorivor o'simliklar qo'llanadi. Zamonaviy dorilar o'simliklar ekstrakti yoki ularning sintetik analoglardan tashkil topadi. Aspirin (tol po'stidan) va digitalis (naperstyanka o'simligidan) lar o'simliklardan olinib, xozir ham ishlatiladi.

Ammo ekstraktlar ham sintetik analoglar ham ko‘p hollarda pobochnqy effektga ega bo‘lgani uchun, ularning dorivor xususiyatlari bevosita o‘simliknikidan pastroq.

<http://www.travolekar.ru/articles/pract/wund.htm>; A.N. Alefirov (2002) ta’kidlashicha, fitoterapiyani teri kasalligini davolashda quyidagi maqsadlarda qo‘llaydilar:

1. Qonni to‘xtatish.
2. Yallig‘lanishni qo‘zg‘atadigan mikroblarni yo‘qotish.
3. Jarayon bitishini tezlashtirish.

Bularning hammasiga bo‘ymadaron yoki boshog‘riq o‘ti (tisyachelistnik), tirnoqgul (nogotki lekarstvenniye yoki kalendula), bagulnik, marmarak yoki mavrak (shalfey), chabrets kabi o‘tlar to‘lig‘icha javob beradilar.

Yagel (kiyik moxi) juda kuchli antiseptik xususiyatlariga ega. 1:1000000 konsentrasiyada u sil tayoqchasini o‘ldiradi. Yagelning tarkibida usin kislotasi mavjud. Farmakologiyada yageldan olingan antibakterial preparat – natriy usinati mavjud.

Dalachoy yoki qizilpoycha, choycho‘p, choyo‘tdan (zveroboy pronzyonniy yoki prdiryavlenniy) “Imanin” (Novoimanin) preparati tayyorlanadi.

Arnikadan lat yeyishlarda ishlatiladigan “Traumel” malhami va tomchilari tayyorlanadi.

http://callisia.org/cistotel_dir/; <http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>

Qon – cho‘p (chistotel; callisia) halq tabobatida avvaldan teridagi har xil o‘smalarini bartaraf etish uchun qo‘llanib kelinadi, ammo hozirgi paytda uning imkoniyatlari ancha keng ekanligi aniqlangan.

Qon – cho‘pdan tayyorlangan preparatlar xavfli o‘smalarning eng boshlang‘ich davrida qo‘llanganda ularning rivojlanish jarayonini to‘xtatish va hatto qaytarish mumkin. Qon – cho‘pning tarixi bir necha ming yillikni egallaydi. Botanik nuqtai nazardan u qizg‘aldoqqa yaqin. U ham shirali bo‘lib, shirasi kuchli davolovchi tahsirga ega.

Qon – cho‘p tarkibiga ko‘p miqdorda zaharli moddalar, organik kislotalar, A va C vitaminlari, boshqa biologik aktiv moddalar va efirli moddalar kiradi. Qon – cho‘pdagi 5 ta zaharli moddalar – alkaloidlar mavjud. Har bir alkaloid organizmga o‘ziga hos ta’sirga ega va ularning katta miqdori bu ta’sirni juda havfli qiladi.

Ammo kam miqdorda aynan shu moddalar qon – cho‘pning dorivor sifatini ta’minlaydi. Fitoterapevtlar qon – cho‘pni mikrodozalarda jigar kasalliklarida, o‘pkaning yallig‘lanishida, bo‘g‘im kasalliklarida, migrenda, oshqozon – ichak tizimidagi xavfsiz va xavfli o‘smalarida qo‘llashga tavsiya etadilar. Turli dermatologik kasalliklarida esa u almashtirib bo‘lmaydigan vositadir. Teridagi sugallar jarrohlik yo‘l bilan yo‘qotilganda chandiqlik qolishi mumkin, ammo bu o‘simlikning shirasi ularni og‘riqsiz va izsiz bartaraf etishi mumkin. Buning uchun dorixonadagi ekstrakt emas balki aynan yangi uzilgan o‘simlik kerak. Qon – cho‘pning poyasi sindirilganda undan to‘qsariqlik shira oqib chiqadi, shu shira bilan sugal ishlanadi. Bu muolaja kuniga 5–6 marta takrorlanadi. Sugal asta – sekin kichraya boshlaydi va vaqt o‘tib, umuman yo‘qoladi. Terini har xil dog‘lar va yallig‘lanishlardan tozalash uchun bu o‘simlik aynan asqotadi. Buning uchun uning shirasi kuniga 3 marta bir necha kun mobaynida qo‘llanadi. Qon – cho‘pdan tayyorlangan har xil vositalar yallig‘lanish jarayonini va qichimani so‘ndiradi, shikastlar chandiqlanishini tezlashtiradi.

Terapevtik maqsadda qon – cho‘pning poyasi, barglari va gullari qo‘llanadi. O‘simlikning davolovchi sifatlari eng ko‘p bahorning oxiri – yozning boshlanishida bo‘ladi. Bunda birinchi gullari paydo bo‘lishi kerak. O‘simlik shudring va *yomg‘ir bo‘lmaganda yig‘iladi. U yerdan 10 sm* balandlikda kesiladi.

Rasmiy fanning nuqtai nazaridan qon – cho‘p o‘t haydovchi, tomir kengaytiruvchi va mikrobg qarshi ta’sirlarga ega. Undan tashqari, uning ayrim komponentlari analgeziyalovchi va sedativ ta’sirga ega. Dermatitlarni davolashda zararlangan joy chetdan markazga qarab ishlanadi.

Yelin so‘rg‘ichining yoriqlari va mastitni davolash uchun ular shira bilan ishlanadi, va 3 daqiqa mobaynida shira so‘rilishi va qotishi uchun imkon

yaratiladi. Burun bo'shlig'idagi kasalliklarda shira har bir burun yo'liga 2–3 tomchidan 5 daqiqa oralatib kiritiladi.

Stomatit va gingivitlarda og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasi 5 marta shira bilan ishlanadi. Bunda u zinxor oshqozonga ketmasligi kerak.

Bo'g'im kasalliklarida shira bo'g'im yuzasiga suriladi.

X.P. Chomayev (2010) ta'kidlashicha, sintetik dori vositalar qo'llanishi organizmning intoksikatsiyasini chaqirib, tez – tez turli asoratlarga olib keladi.

O'simliklardan tayyorlangan dori vositalar keng spektrli ta'sirga ega bo'lib, kam toksikli va nisbatan arzon. Bunday dori vositalarni ko'p vaqt qo'llash mumkin chunki ular organizmda kumulyatsiya bo'lmaydi (**T. Kinura, 2002**).

Xozirgi vaqtga qadar o'smalarga qarshi ta'sir etuvchi 72 ta dorivor o'simliklar ma'lum, masalan: akonit, kalendula, kakra, chayono't nastoyi va boshq. Odatda bunday o'simliklarda nuklein kislotalar bilan o'zaro ta'sir qiladigan alkaloidlar aralashmasi mavjud bo'ladi (**S.O.Gudima, L.B.Memelova va boshq. 1994**).

Bunday vositalarning istiqbolli manbalaridan biri – Papaveraceae oilasiga mansub katta qon – cho'pning (*Chelidonium majus* L.) yer usti qismidir. Bu turga mansub o'simlikning ashyosi ko'p tomonlama farmakologik faollikka bo'lib, fan va halq tabobatida qo'llanadi (**S.Ya. Sokolov, I.P. Zamotayev, 1993**). Qon – cho'p ko'p teri kasalliklarida qo'llanadi, u qichishishga va yallig'lanishga qarshi, epitelizatsiyani jadallashtiruvchi, antimikrob, fungitsid, og'riqni pasaytiruvchi ta'sirga ega (**A.A. Krilov, V.A. Marchenko, N.P. Maksyutina va boshq., 1991; D.T. Jogolev, L.L. Galin, I.I. Dobroserdova, 1994**). Qon – cho'pning o'smaga qarshi ta'siri aloxida e'tiborga loyiq. Qon – cho'pning preparatlari xatarli o'smalar o'sishini to'xtatishi, metastazlar hosil bo'lishining oldini olishi tadqiqotlarda isbot etilgan (**E.H. Amosova, Ye.P. Zuyeva, V.G. Isakov va boshq., 1991**). Bu o'simlikning tibbiyotda qo'llanishi undagi biologik faol moddalar, birinchi navbatda alkaloidlar borligi bilan bog'liq. Ularning miqdori ashyoda 2,0% ni tashkil qiladi (**N.E. Akopov, 1990; L.A. Berkalo, 1990; G.N. Buzuk,**

M.Ya.Lovkova, N.S. Sabirova va boshq., 1991; S.Ya. Sokolov, I.P. Zamotayev, 1993). Undan tashqari, qon – cho‘pda flavonoidlar va askorbin kislota mavjud.

N. G. Valiyeva (2001) ta’kidlashicha Rossiyada 18 mingga yaqin yovoyi o‘simliklar o‘sadi. Shularda tibbiyot amaliyotida dori vositalar sifatida faqat 230 tasi, veterinariyada esa – 30–40 turi qo‘llanadi. Bunday holat, kimyo yutuqlari veterinariya va tibbiyotni qator kuchli davolash vositalar bilan boyitishi natijasida fan xodimlarining dorivor o‘simliklarga e’tibori pasayishidan kelib chiqqan.

Dori preparatlarini tayyorlash uchun o‘simlik ashyosini amaliy qo‘llash veterinariyada alohida o‘rin egallaydi chunki ular qimmat sintetik vositalardan nisbatan arzon bo‘lib, ularni almashtirishi mumkin va shu bilan chorvachilik maxsulot tannarxini pasiytirishga imkon yaratadi.

Undan tashqari, tabiiy kimyoviy birikmalar hayvon va odam organizmiga kamroq zararli ta’sirga ega bo‘lgani sababli, ularni surunkali va ayrim holatlarda o‘tkir kasalliklarda qo‘llash mumkin (Z.K. Vimyatina, 1997; T.A. Maymeskulova i JT.H. Maslova, 1998; N.K. Ogrizkov, 1998).

Dorivor o‘simliklarning ko‘pchilik sintetik preparatlaridan ustunligi – ularda evolyusiya jarayonida hosil bo‘lib va hayvon organizmiga kompleks ta’sir qiladigan, o‘zaro munosabatda alkaloid, glikozid, vitamin, mikroelementlar va boshqa biologik faol moddalar mavjudligidir (V.K.Lavrenev, G.V.Lavreneva, 1999 va boshq.). Shuning uchun yangi dorivor o‘simliklarni topish, ularni o‘rganish va veterinariya amaliyotiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

<http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>

Qadimdan kalanxoe “pichoqsiz jarroh” deb atalib kelgan. Bu o‘simlikning nomi qadimgi Xitoydan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Bu o‘simlikning sharbati juda yuqori davolovchi xususiyatlarga egadir. Shuning uchun u nafaqat xalq, balki ofisial tibbiyotida ham qo‘llanadi. Kalanxoening sharbati qisqa vaqt ichida jarohatni va yarani yiring va o‘lgan to‘qimalardan tozalaydi. Jarohatlarning bitish muddati 1,5–2 martta qisqaradi.

Kalanxoedan kombinatsiyalashgan preparat Kalanxin ishlab chiqilgan. Preparat granula, liniment shaklida bo‘lishi mumkin.

V.A. Yermolayev (2008); I.S. Suxina (2011); I. S. Raksina (2012); <http://www.dissers.ru/1selskohozyaistvo/effektivnost-primeneniya-preparata-ranion-pri-lechenii-gnoynih-kozhno-mishechnih-ran-zhivotnih-06-02-04-veterinarnaya-hirurgiya.php> lar ta'kidlashicha, chaga nomli oq qayin zamburug'idan quruq vozgonka yo'li bilan olingan vityajka antimikrobli xususiyatga ega. Bu vityajkadan "Ranion" preparati ishlab chiqilgan. "Ranion" laborator hayvonlardagi yiringli jarohatlar bitishiga ijobiy ta'sir qiladi. Jarayon har kuni ishlanib turilganda, tuzalish muddati 11–13 kunlarni tashkil qiladi.

"Ranion" ta'sirida granulyatsion to'qima ertaroq o'sa boshlaydi.

<http://petmarket.com.ua/ESPREE-NATURAL-BANDAGE-ranozazhivljaju-schij-plastyr-dlja-zhivotnyh.html>

Espre (espri) natural bandage – hayvonlar uchun mo'ljallangan jarohatlarni davolovchi plastir. Plastirning jelesimon ximoya qavatida aloe, evkalipt, xvosh va arnika o'simliklarning tarkiblari mavjud. Jarohatlar ustida tabiiy qoplama xosil qiladi. Uzilgan tirnoqlar va kichik jarohatlar uchun ajoyib vosita hisoblanadi, qon ketishini tezda to'xtatadi. Vositaning achchiq ta'mi jarohatlarni yalash va kamirishning oldini oladi. It va mushuk bolalari uchun havfsiz. Plastir shafov bo'lib, jarohatni germetik yopadi.

Arnika og'riqni yo'qotib, yuqori bitish xususiyatlarga ega.

Qirqbogin – jarohat bitishini ta'minlovchi, qon ketishini to'xtatuvchi vosita. Preparatga kiritilgan Bitreks o'ti achchiq ta'm beradi.

Qo'llanishi – toza jarohatga surib, qurigancha 12 soniyaga harakatsiz qoldiriladi.

1.3. Itlardagi teri kasalliklarini dorivor o'simlik preparatlari bilan davolash va oldini olish tamoyillari

D.V. Shagayev (2007) ta'kidlashicha, kuch salohiyatiga ega vazirliklar va tuzilmalarda faoliyat ko'rsatadigan xarbiy hayvonlarning ko'pchiligini xizmat itlari tashkil qiladi. Ular mina qidirish, qoravul, qidiruv va boshq. xizmatlarda qo'llanadi. Xarbiy qismlar va bo'linmalarida qo'llanadigan xizmat itlari ko'p miqdorda turli etiologiyali kasalliklarga chalinadi. Xizmat itlardagi teri

kasalliklarini davolash xarbiy qismlari veterinar – sanitar xizmati boshliqlari va xarbiy bo‘linmalari veterinariya vrachlarining har kunlik faoliyatida muxim o‘rinni egallaydi. Teri kasalliklari orasida dermatitlar alohida o‘rin egallaydi. Bu guruh kasalliklarning diagnostikasi juda murakkab kechadi va terapiya masalalari qiyin hal bo‘ladi.

Xozirgi vaqtda itlardagi har xil teri kasalliklarini, shu jumladan dermatitlarni davolashning ko‘p vositalari va usullari ishlab chiqilgan. Ammo taklif qilingan vositalar ko‘pligiga qaramasdan dermatitlarni davolash muammosi xanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda (P.M.Vasilyev, 2001, T.V.Melnik, V.A. Sozinov, O.V.Suxanova, A.F.Sapojnikov, 2002, H.JL Karpeskaya, 2003). Bir tomondan – bu maqsadda qo‘llanadigan import vositalar qimmat, boshqa tomondan – mamlakatning o‘zida ishlab chiqiladiganlarning miqdori kam, borlari esa qator salbiy hossalarga ega. Teri kasalliklarini davolashda immunokorreksiya muxim o‘rin tutadi. Immunokorreksiyaning samarali usuli bo‘lib esa autogemoterapiya xizmat qiladi (V.A.Lukyanovskiy, 1995, L.N.Gordiyenko, 2000).

Dorivor o‘simliklar boshqa hayvonlarni davolashda ham keng qo‘llanadi. Masalan B. Pakulev, L. Marchuk (1999) lar ta’kidlashicha tuyoq kaftining chirishida pichoq bilan chirigan qavat qirib tashlanadi, jarohat denaturat bilan yuviladi va dezinfeksiya qilish maqsadida yuzasi oq qayindan olinadigan dyogot vositasi bilan ishlanadi. Undan tashqari jarohatga qotiruvchi xususiyatga ega oq qayin po‘sti qo‘yilib, ustidan toza mato bog‘lanadi. Undan tashqari, chirigan tuyoqni davolashda moychechak damlamasi ham qo‘llanadi.

Tuyoq strelkasi lat yeyishida otga yallig‘lanishga qarshi ta’sir etuvchi xususiyatga ega tuzli suvga bo‘ktirilgan so‘li damlamasi beriladi.

Noto‘g‘ri taqalashdan so‘ng ot asosan nam va ifloslangan otxonada saqlanganda tuyog‘i chirib qoladi. Bunda taqa olib tashlanadi, jarohat kerosin bilan yuvilib, va ustiga zupturum bog‘lanadi.

A.B. Smirnov (2010; http://treskunov.narod.ru/newpages2009/smironov_zapiski_o_lechenii_streptococcovoy_i_stafilococcovoy_infecsi.html) lar ta’kidla -

shicha, o'simliklar yig'malari yordamida yallig'lanish jarayonidagi infeksiya rivojlanishini oldini olish, yallig'lanishning har xil bosqichlarida esa uning tarqalishini to'xtatish mumkin. Masalan giperemiya bosqichida qoqi, ivan-chay, eman daraxtining po'sti kabi o'simliklar va ularning tana qismlari, shish bosqichida – momoqaymoq, sporsh, qariqiz, oq qayin bargi, zupturum va boshq., infiltrasiya bosqichida – xarxar (donnik), bo'ymadaron, qirbo'g'in (xvosh polevoy), tirnoqgul va boshq. yaxshi samara beradi. Agar yallig'lanish nekroz yoki abscesslanish bosqichiga o'tmagan bo'lsa, regeneratsiya bosqichlari boshlanadi. Bunda budra plyumyevidnaya, dastarbosh (pijma), xarxar (donnik), bo'ymadaron va boshq. o'simliklar – regeneratlar samarali bo'ladi.

Bitta o'simlik turli davolovchi ta'sir qiladi, kompleks qo'llanganda esa ular bir – birining ta'sir kuchini oshiradi, immunitetni va oqibatda organizmning gomeostazini tiklash kabi murakkab muammoni hal qiladi.

O'rikarcha yoki qoraarcha, qizilarcha (mojjevelnik), dalachoy (zveroboy), igir (air bolotny), trilstnik vodyanoy, dastarbosh kabi o'tlar, qarag'ay kurtaklari juda kuchli antimikrobli ta'sirga ega. Kokkli florada “stafilolizin” (№9) o'simliklar yig'masi qo'llanadi, unga bo'ymadaron, qariqiz, dalachoy yoki qizilpoycha, dorivor xarxar, tog'rayxon yoki jambil (dushisa obeknovennaya), chayono't, katta zubturum, oqqaldirmoq (mat-i-machexa), gores ptichiy, shipovnik korichny, g'ozpanja, dorivor momoqaymoq, dorivor tirnoqgul, dastarbosh, dorivor moychechak, dala qirqbo'g'ini kabi o'simliklar qiritilgan.

№9 o'simliklar yig'masi sinusitlarda ham yaxshi samara beradi. Immun statusni yaxshilash uchun 24 o'simliklardan tashkil etgan №5 yig'ma qo'llanadi.

<http://www.reddogfoto.ru/ru/pitomnik/articles/detail.php?sid=50&id=599>

Lipin Sanin (2008) ta'kidlashicha, oxirgi yillarda hayvonlar kasalliklarini davolash uchun alternativ usullarni qo'llashga qiziqish keskin ortib bormoqda. Undan tashqari kasallangan uy hayvonlariga kuchli ta'sir etuvchi (biologik agressiv) vositalar har doim ham to'g'ri kelavermaydi. Infeksion kasalliklar vaksinasiya qo'llanishi tufayli kam uchraydilar va ko'pincha noaniq shaklda kechadi, surunkali shaklga o'tadi. Hayvonlar kasalliklarining zamonaviy kechish

xususiyatlariga zamonaviy fitopreparatlarning ta'sir spektri to'g'ri keladi. Shuning uchun ularga vrachlar va hayvon egasining qiziqishi oshgan.

Quyida o'simlik vositalarning ta'siri keltiriladi:

1. Yallig'lanishga qarshi: arpabodiyon (mevasi), petrushka, qorazira (tmin);
2. Shamollashga qarshi: bo'tako'z (vasilek, gullagan o'tdan tayyorlangan tindirma), eman daraxtining po'sti, marjumak (grechixa posevnaya), qirqbo'g'in (polevoy xvosh), turf sharbati;
3. Haroratni tushiruvchi: arpabodiyon, bagulnik bolotny, brusnika, andiz (devyasil), dalachoy (zveroboy), mat-i-machexa, gunafsha (fialka);
4. Allergiyaga qarshi: bagulnik bolotny, pion uklonyayushiysya, tirnoqgul, chayon o't, g'ozpanja (lapchatka), moychechak, eman daraxtining po'sti, terak kurtaklari, bo'ymadaron, shumurt (mevasi);
5. Jarohatlarni bitgazuvchi (tashqi tomondan qo'llash uchun): kiyik o'ti, rayxon (bazilik), zupturum, tirnoqgul;
6. Kuyishlarda qo'llanuvchi: tirnoqgul, arnika, chayon o't;
7. Sog'lomlashtiruvchi balzam: qichitqio't yoki gazanda gulidan yoki poyasidan yangi tayyorlangan shira);
8. Qonni tozalovchi: sinniya o'ti;
9. Qonni to'xtatuvchi: kelintili yoki suvzamchi (gorlets pochechuyny) va suvqalampir yoki suvzamchi (gorles perechny), ochambiti yoki jag'jag' (pastushya sumka), yapon saflorasi;
10. Vitaminlarga boy: satzinak (kerbel), koriandr, chayono't (krapiva), namatak (shipovnik korichny), shivit, estragon, dalachoy (zveroboy), oqzira (fenxel), sabzi, qarafs (selderey paxuchiy), lyubistok, petrushka, arpabodiyon.

Agar it tindirmani achchig'ligi uchun ichmasa, unga glyukoza, dekstroza qo'shiladi. Undan tashqari tindirmani sut yoki go'sht bilan berish mumkin. Boshqa holatlarda ko'p o'simliklar komponentlaridan tarkib topgan va proporsiyalarga rioya qilingan tayyor xabdori shakllaridan foydalanish mumkin (masalan, Fitoelita seriyasidan).

R.A.Xasanova (2005); <http://beautyinfo.com.ua/m0c2i691.html> ta'kidlashicha, ayrim dorivor o'simliklaridan xabdorilar, mikstura va nastoykalar xali ishlab chiqarilmagan. Bu holda tindirma (nastoy) tayyorlanadi. Buning uchun 1 choy qoshiq quritilgan o'simlikka 1 stakan qaynoq suv qo'shib, 20 daqiqa tindirib qo'yiladi. Tindirma salqin joyga qo'yilganda 2–3 kun saqlanishi mumkin. O'tkir kasalliklarda kuniga 2 marta oziqlantirish vaqtida beriladi.

Dorivor o'simliklar surunkali kasalliklarda yaxshi samara beradi.

Dorivor o'simliklar organizm uchun umuman xavfsiz degan fikrlar mavjud. Ammo bu shundaymikan? Bir xil o'simlik vositasini ko'p vaqt ishlatlsa, unga o'rganib qolish holati hosil bo'ladi. Shuning uchun mutahassislar o'simlik va yig'malarni vaqti – vaqti bilan, har 3–4 xaftada almashtirib turishga maslaxat beradilar.

Ayrim o'simliklarning moddalari organizmda to'planib, ular salbiy ta'sir qilishga boshlaydi. Bularga qon-cho'p (chistotel), kakra (poln), bo'yimadaron kabilar kiradi. Ayrimlarining tarkibida esa zaharli moddalar mavjud – bagulnik, kakra, cheremisu, omelu, qon-cho'p, qirqbo'g'in (paporotnik), qoraarcha yoki qizilarcha kabi o'simliklarni juda ehtiyotkorlik bilan ishlatish lozim.

Zaharli o'simliklarning ro'yxati asta – sekin kengayib bormoqda.

O'tlardan tayyorlangan choy operatsiya natijasiga har xil ta'sir qilishi mumkin. Masalan, exinatseya allergik reaksiyasini oshiradi, immun preparatlari bilan davolashga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun uni qo'llashni operatsiyadan ancha avval to'xtatish lozim.

Sarimsoq piyoz, ginkgo biloba va jenshen tromb hosil bo'lishiga qarshi yaxshi ta'sir etadilar, ammo bu xislat operatsiyadan so'ng qon ketishining sababi bo'lishi mumkin. Dalachoydan tayyorlangan vositalar ajoyib antidepressantlar, ammo ular boshqa dori vositalarning ta'siriga halaqit beradilar. Asarun (valeriana) narkoz vositalarga bo'lgan talabni oshirishi mumkin. Qayd etib o'tilgan dorivor o'simliklarni qo'llashni operatsiyadan 1 hafta avval to'xtatish kerak.

Fitoterapiyada bir vaqtda kechadigan kasalliklar, o'tlarning qabul qilinadigan kimyoviy preparatlar va ozuqa bilan bir biriga mosligi hisobga olish

zarur. Masalan, tetratsiklin va sulfanilamidlarni qo'llashda dalachoyini ishlatish tavsiya etilmaydi chunki bu terining yorug'likka sezuvchanligini oshiradi va quyoshdan kuyishga sabab bo'ladi.

Eleuterokokk. Davolash maqsadida o'simlikning tomiri va barglari qo'llanadi. Ularning tarkibiga uglevodlar, efir moylari, steroidlar, alkaloidlar, fenollar, fenolkarbon kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar kiradi. Eleuterokokk preparatlari yallig'lanishga qarshi va jarohatlarni davolovchi xususiyatlarga ega.

Chayono't. Davolash maqsadida o'simlikning barglari qo'llanadi. K, V2, S vitaminlari, karotin, organik kislotalar, shakarlar, kraxmal, oshlovchi moddalar, bo'yoqlar, mikroelementlar kiradi (<http://www.edoctor.uz/page>).

Toza jarohatlarni davolash uchun quyidagi o'simliklar qo'llanadi.

Dorivor medunitsa. Yangi uzilgan o'tning sharbatini ishlatiladi. Xalq tabobatida yod o'rniga ishlatiladi. Achchiq qizg'ish sharbatini jarohat ustiga quyib, ustidan bog'lam qo'yiladi. Yangi uzilgani bo'lmasa uning kuli qo'llanadi. Medunisa qonni to'xtatadi, yallig'lanishga qarshi, davolovchi va antiseptik xususiyatlarga ega.

Bo'yimadaron (Tisyachelistnik obiknovenniy). Yangi uzilgan o'tning sharbatini ishlatiladi. Sharbat yoki maydalangan poya jarayon ustiga qo'yilib, ustidan bog'lam qo'yiladi. Qonni to'xtatadi, yallig'lanishga qarshi, davolovchi, og'riqsizlantiruvchi va antiseptik xususiyatlarga ega.

Chayono't. Yangi uzilgan o'tning sharbatini ishlatiladi. Sharbatni salftkalar yordamida qonab turgan jarayon ustiga quyib, ustidan bog'lam qo'yiladi. Qonni to'xtatadi, yallig'lanishga qarshi, davolovchi, og'riqsizlantiruvchi va antiseptik xususiyatlarga ega.

Oddiy qarag'ay, archa, sibir piktasi. Daraxt sharbatini jarayon yuzasiga suriladi. Qonni to'xtatadi, jarohatlarni tez davolovchi xususiyatlarga ega.

Oddiy kirkazon. Barglari ezilib, qonab turgan jarohatlarga qo'yiladi. Qonni to'xtatadi, yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi xususiyatlarga ega.

Grib–dojdevik. Yod o'rniga ishlatiladi. Zamburug'ning ikkiga bo'linib, oq tomoni bilan qonab turgan jarohatga qo'yiladi. Pishib yetilgan zamburug'ning

kulrang – zangori sporalari jarohat ustiga sepiladi. Qonni to‘xtatadi, yallig‘lanishga qarshi va antiseptik xususiyatlarga ega (http://medicalplant.ru/17_2.shtml).

<http://malva.ucoz.ru/forum/14-1171-1> - V. Rogoza (2008) ta’kidlashicha tabiatda bir talay qonni to‘xtatuvchi va jarohatlarni tuzatuvchi o‘simliklar mavjud. Eng taniqlisi albatta zupturnidir, uning barglari qotiruvchi va qon to‘xtatuvchi xususiyatlarga ega. Uni topish oson, chunki u doim yo‘llar chetida va dalalarda o‘sadi. Jarohatlarni davolash uchun zupturni qadimdan qo‘llanadi. Xali Avitsena uni yaralarni davolashda qo‘llagan.

Boshqa qon to‘xtatuvchi o‘simlik – bo‘yimadaron. Bu o‘simlikni dalalarda qurib qolganlari qishda ham ishlatilishi mumkin. Qadimgi Yunonistonda uni “soldat guli” deb ataganlar, chunki uni xarbiy vrachlar keng qo‘llaganlar.

G‘ozpanja, dalao‘t, chayono‘t, jag‘jag‘ kabi ko‘p uchraydigan o‘simliklar ham jarohatlarni davolash uchun samarali qo‘llanadi.

Petushki florentiyskiye (Iris florentina). Jarrohlikda og‘riqni pasaytiruvchi va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Yiringli jarohatlar va oqmalarda qo‘llanadi (<http://doktor.uel.su/ar2/articles/default.htm>).

Qon–cho‘p (chistotel). Yallig‘lanishni bartaraf etadi, jarohatlar chandiqlanishini tezlashtiradi (http://www.callisia.org/cistotel_dir/).

A.N.Turchenko, A.A.Limarenko (1994); M. A. Bagmanov (1998) lar ta’kidlashicha, o‘rmon yong‘ogi (leshina obiknovennaya) yog‘ochining suyuq fraksiyasi va sigirlar yo‘ldoshi ekstrakti qo‘shilishidan olinadigan preparatni ishlab chiqish uchun substratlar chuqur parchalanishini ta’minlaydigan termik ishlov va avtoklavlashtirish jarayonlar qo‘llanadi. Olinadigan preparat biogen ta’sirga ega.

A.G. Nejdánov (1994) ma’lumotiga ko‘ra, sigirlar yo‘ldoshi ekstraktiga 1,24 – 1,26% miqdorda leshina daraxti yog‘ochining suyuq fraksiyasi sigirlar yo‘ldoshi ekstraktiga qo‘shilganda ekstraktning terapevtik va profilaktik samarasi oshadi. Aralashma 1soat 1,4–1,6 kg/sm² bosimda avtoklav qilinadi.

S. G. Gadzaonov (2009) ta'kidlashicha, jarrohlik kasalliklar bilan kurashish tajribasi ko'rsatadi – bu jarayonda asosiy vazifani qisqa mudatda hayvon sog'ligini tiklaydigan dorili terapiya bajaradi. Jarrohlik infeksiyani davolashning hozirgi etapida turli usullar va antimikrobli vositalar qo'llanadi. Ammo ularning har bittasi o'ziga hos kamchilikka ega – qiyin bajarilishi, qimmatlik, mikrofloraga yetarlicha ta'sir qilmaslik va sh.o'. Bu holat ishlab chiqarishga oson topiladigan, arzon va samarali dori vositalarini hamda patogenetik terapiya usullarini joriy etishni taqozo etadi. Shuning uchun infeksiyalashgan yallig'lanishlarni 30% li qon – cho'pining shirasi va 10% li malhami bilan vibrasion terapiya hamda infraqizil nurlantirishni qo'llab davolash katta qiziqish chaqiradi.

I bob bo'yicha xulosa

1. Hayvonlarda, jumladan itlardagi mavjud patologiyalar orasida ichki yuqumsiz kasalliklaridan keyin yetakchi o'rinlardan birini jarrohlik kasalliklar (50–60%) egallaydi.

2. Teri yallig'lanishlarini optimal davolash yo'llarini topish, patogenetik asoslangan davolashni belgilash, toksik – allergik holatlarni rivojlanishiga olib keladigan medikametoqli terapiya xajmini qisqartirish veterinariyaning aktual muammosi bo'lib qolmoqda.

3. Sintetik preparatlar ko'proq toksik bo'lib, qiyin boshqariladigan autoimmun patologiyalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ayrim lipopolisaxaridlar, ad'yuvantlar, mediatorlar infeksiyon patologiyani og'irlashtiradi va hatto hayvon o'limiga olib keladi.

4. Allergik holatlarni rivojlanishiga olib keladigan medikametoqli terapiya xajmini qisqartirish veterinariyaning aktual muammosi bo'lib qolmoqda. Bunday vazifalarni tibbiyot va veterinariyada qadimdan qo'llanib kelgan dorivor o'simliklar bajarib kelgan.

5. Hammaga ma'lum choylar va yig'malar kasal itlarga yordam beradi, o'simliklar yallig'lanishga va allergiyaga qarshi ta'sir etuvchi, haroratni

tushiruvchi, kuyishlarni tuzatuvchi, sog'lomlashtiruvchi, qonni to'xtatuvchi va og'riqsizlantiruvchi xususiyatlariga ega.

II. XUSUSIY TADQIQOTLAR

2.1. Tadqiqot ob'yekti va uslublari

Tadqiqotlar Samarqand qishloq xo'jalik instituti, Veterinariya fakulteti jarrohlik klinikasida olib borildi.

Itlardagi dermatitlarda Qon-cho'p o'simligidan tayyorlangan preparatlarning davolovchi xossalarini sinash uchun dermatit kasalligiga chalingan 10 bosh itlar ajratildi. Ular tajriba va nazorat guruhlariga 5 boshdan kiritildi.

Tajriba guruhi itlardagi dermatitli jarayonga 25% li Qon cho'p malhami bilan ishlov berildi.

Nazorat guruhi hayvonlarda 10% li Qon – cho'p damlamasi qo'llandi. Itlarning sog'ayishi hayvonning umumiy ahvoli va mahalliy ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlandi.

Malham va damlamani qo'llashdan avval teri junlardan tozalandi. Kasal itni davolash maqsadida malham terining zararlangan joylariga tampon yoki shpatel bilan nozik qilib surildi. Davolash muolajasi har ikki kunda bir marta bajarildi va hayvon sog'ayib ketgancha takrorlanib turildi.

Davolash sxemasi

Hayvonlarda quyidagi davolash ishlari amalga oshirildi:

1-jadval

№	Guruh	Hayvonlar soni	Muolajalar
1.	Nazorat	5	1. Spirt – glitseringa (50x50) namlangan tampon bilan ishlov beriladi. 2. A.V. Vishnevskiyning balzamik malhami bilan bog'lam qo'yiladi. 3. Gentamitsin muskul orasiga yuboriladi. 4. Dermatitli jarayonga 10% li Qon – cho'pning suvli qaynatmasi qo'llanadi
2.	Tajriba	5	1. Spirt – gliseringa (50x50) namlangan tampon bilan ishlov beriladi. 2. A.V. Vishnevskiyning balzamik malhami bilan bog'lam qo'yiladi.

			3. Gentamitsin muskul orasiga yuboriladi. 4. Dermatitli jarayonga 25% li qon cho‘p malhami bilan ishlov berildi.
--	--	--	---

Tadqiqotlarda qo‘llangan Qon – cho‘p o‘simligidan tayyorlangan preparatlar

Qon – cho‘p qaynatmasi

10 g qon – cho‘p ashyosi olinib, ustidan 100 ml qaynoq suv quyiladi, keyin 37 °C gacha sovitiladi. Vannochkalar har kuni 15–20 daqiqadan qabul qilinadi. Qayzg‘oqni kamaytirish uchun qaynatma junlar asosiga ishqalab singdirildi.

Qon – cho‘p malhami

Qon – cho‘pdan tayyorlangan 20 g qon – cho‘p kukuni 10 g lanolin va 70 g vazelin bilan aralashtiriladi. Malham zararlangan joylarga kuniga 2–3 marta surildi.

Undan tashqari quyidagi ishlarni bajarish rejalashtirildi:

1. Samarqand shaxrida itlarda dermatitlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash.
2. Itlarda dermatitlar biologiyasini o‘rganish.
3. Itlarda dermatitlarning oldini olish va davolash chora tadbirlarini ishlab chiqish.
4. Itlarda dermatitlarni davolash uchun 10% li qon – cho‘p qaynatmasi va 25% li qon cho‘p malhami qo‘llandi.

2.1.1. Kasallangan itlarni tekshirish usullari

Tajribalar o‘tkazish jarayonida kasal hayvonlar klinik, morfologik, gistologik va ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlarga tekshirish uchun quyidagi usullardan foydalandik:

Klinik tekshirishlar

Anamnez ma’lumotlarini yig‘ish. Bu usul yordamida quyidagilarni aniqladik: hayvon qachon va qanday sharoitda kasallandi, hayvonni saqlash, oziqlantirish, ozuqa tarkibi, hayvon saqlanadigan joyning sharoiti, kasallangan

hayvonga birlamchi yordam ko'rsatilganmi va kim tomonidan, bog'lam ishlatilgan bo'lsa uning holati.

Ko'zdan kechirish usuli: bu usul yordamida quyidagilar aniqlandi: patologik jarayoning joylashgan joyi, qanday to'qimalar zararlanganligi, patologik jarayonning katta – kichikligi, jarayon chetlarini bir biridan qochishi, patologik jarayondan ajralib turgan suyuqlik xarakteri va miqdori, jarayon bo'shlig'idagi begona jismlar mavjudligi va ularning miqdori.

Paypaslash usuli. Bu usul yordamida quyidagilar aniqlanadi: mahalliy harorat, og'riq, suyuqlik xarakteri, kreptasiya tovushlari, to'qimalardagi shishlarning mavjudligi va ularning holati.

Gistologik tekshirishlar

Gistologik tekshirishlar Veterinariya fakulteti Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya kafedrasi hamda Samarqand davlat tibbiyot institutida bajariladi. Gistologik preparatlarni tayyorlash uchun terining zararlangan joylaridan biopsiya na'munalari bir nechta itlardan olinadi. Bunda biopsiya bir hayvondan 3 marta, bir necha kunlar oralatib: medikamentoz davolashdan avval, davolash va dermatit ochog'i tuzalishi bosqichlarida olinadi. 15x3 mm kattalikda biopsiya na'munasi olingandan so'ng teridagi jarohat tikiladi. Na'muna parafinda fiksasiya qilinishi umum qabul qilingan uslubiyot qo'llanadi. Gistologik kesimlar RICHERT–JUNG mod. 1165 rotasion mikrotomda bajariladi.

2.1.2. Qonni tekshirish usullari

Tajribalarni o'tkazish jarayonida kasal itlar qoni morfologik ko'rsatkichlarga tekshiriladi. Buning uchun quyidagi usullardan foydalandik:

1. Eritrotsitlarni sanash.

Buning uchun Goryayevning sanoq kamerasidan foydalandik. Unda 225 ta kvadrat bo'ladi va ular 16 ta katta kvadratga birlashadi. Eritrotsitlar 5 ta katta kvadratlarda sanaladi. Uning har bittasi 16 ta mayda kvadratni o'z ichiga oladi, ya'ni jami $16 \times 5 = 80$ ta kvadrat. Kamerani ishga tayyorlash: kamera ustiga

buyum oynachasi berkitiladi va yuzasida kamalak rangda halqa hosil bo'lganacha bir – biriga ishqalanadi, so'ng kamera mikroskopga qo'yiladi. Qon qizil xonachasi bo'lgan melanjerda olinadi. Melanjerda 3 ta raqam yozilgan: 0,5 – 1 – 101. Qon 0,5 yoki 1 gacha olinadi va 3 % osh tuzi eritmasi bilan 101 ko'rsatkichigacha aralashtiriladi. Shundan so'ng bir necha marta aralashtirilib, birinchi tomchi tashlanib, ikkinchisi kamera va buyum oynachasi oralig'iga qo'yiladi va sanash boshlanadi. Eritrotsitlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{A \times 4000u}{80}$$

Bunda: A – 5 kattakvadratda eritrotsitlar soni
4000 – Goryayev to'rining hajmi
u – aralashtirish darajasi

2. Qonda leykotsitlar sonini aniqlash.

Bu ham Goryayev sanoq kamerasida aniqlanadi. Qon oq qon tanachasi bor melanjerda olinadi (10.5 – 11 gacha). Qon olingandan keyin 3 % sirka kislotasi bilan aralashtiriladi. Melanjerdagi qon, aralashtirilgandan keyin ikkita tomchi tashlanib, uchinchisini kamera va buyum oynachasi oralig'iga qo'yiladi. Leykotsitlar 100 ta katakda sanaladi. Leykotsitlar quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = \frac{A \times 4000 \times 200}{1600}$$

Bunda: A – 100 katta kvadratlardagi leykotsitlar soni
1600 – aralashtirish darajasi.

3. Leykotsitar formulasini sanash.

Buning uchun bir tomchi qon yog'sizlantirilgan buyum oynachasiga tomizilib, ikkinchi buyum oynachasi bilan yupqa surtma tayyorlanadi. Quritilgandan so'ng surtma 15 – 30 minut spirtida fiksatsiya qilinadi va 15 – 28 daqiqa davomida Romanovski – Gimza usulida bo'yaladi. Buyoq yuvilgandan keyin, mikroskop tagida surtmadagi 100 ta har xil turdagi leykotsitlar sanaladi va ularning foizi chiqariladi.

4. Eritrotsitlarning cho‘kish tezligini aniqlash.

EChT – Panchenkov asbobi yordamida kapillyarlardan (10mm) tuzilgan. Qonni olishdan oldin kapillyar 5 % limon kislotasi bilan chayiladi. Shundan so‘ng qon olinadi va soat oynachasiga solinadi. Aralashtirilgandan keyin qon kapillyarga 100 belgisigacha olinadi va aparatga berkitiladi. Har 10 minutda kuzatilib eritrotsitlar cho‘kish tezligini aniqlaymiz.

5. Nb – gemoglobinning qondagi miqdorini aniqlash.

Gemoglobin FEK asbobida aniqlanadi, uning to‘lqin uzunligi 540 ga teng. Gemoglobin oksigemoglobin bo‘yalishi buyicha aniqlanadi, buning uchun ammiak eritmasi ta’sirida qon gemolizga uchraydi. Byuretkada yordamida probirkaga 4 ml 0.04 % ammiak eritmasi quyiladi. Shundan so‘ng Salli gemometrining kapillyariga 20 mm kub qon olinib ammiak eritmasiga solinadi, 3 marta chayqaladi. Gemoglobinni aniqlash uchun namuna kyuvetkaga qo‘yiladi, (uni qalinligi 10mm) va FEKning yashil svetofiltrida ko‘riladi. O‘ng baraban shkalasidan olingan eritma zichligi ko‘rsatkichini maxsus jadvalga qo‘yib qondagi gemoglobin miqdori aniqlanadi.

<http://www.webmvc.com>

2–jadval

Ch. Kolodiyev bo‘yicha itlar qonining tarkibiy ko‘rsatkichlari me‘yorlari (1996)

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Me‘yordagi qiymati
Gemoglobin	x 10 g/l	12–18
Eritrositlar	x 10 ¹² /l	5,5–8,5
Leykositlar	x 10 ⁹ /l	6,0–17,0
Segment yadroli neytrofillar	% x 10 ⁹ /l	60–703,0–11,4
Tayoqcha yadroli neytrofillar	% x 10 ⁹ /l	0–30–0,3
Limfositlar	% x 10 ⁹ /l	12–301,0–4,8

Monositlar	% x 10 ⁹ /l	3–100,15–1,35
Eozinofillar	% x 10 ⁹ /l	2–100,1–0,75
Bazofillar	–	Kam hollarda
Bikarbonatlar (rezerv. ishqor)	mmol/l	18,1–24,5
Albumin	g/l	25,8–39,7
Albumin/globulin	nisbati	0,7–1,9
Globulin	g/l	20,6–37,0
Umumiy oqsil	g/l	55,1–75,2

3–jadval

**M.Filippov bo'yicha qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlari me'yorlari
(2001)**

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Normadagi qiymati
Glyukoza	Mmol/l	3,3–6,0
Oqsil	g/l	54–77
Albumin	g/l	25–37
Xolesterin	Mmol/l	3,3–7,0
Umumiy bilirubin	Mkmol/l	0–7,5
Alaninaminotransferaza	U/l	10–55
Aspartataminotransferaza	U/l	10–55
Laktatdegidrogenaza	U/l	50–495
Ishqorli fosfataza	U/l	10–150
Gamma–glutamiltransferaza	U/l	1–10
Amilaza	U/l	300–2000
Mochevina	Mmol/l	4,3–8,9
Kreatinin	Mkmol/l	35–133
Noorganik fosfor	Mmol/l	0,7–1,8

Kalsiy	Mmol/l	2,0–2,7
Magniy	Mmol/l	0,72–1,2
Siydik kislotasi	Mkmol/l	do 160 (P.F.Suter bo'yicha, 2001)
Trigliseridlar	Mmol/l	0,56 (P.F.Suter bo'yicha, 2001)
Elektrolitlar:		
Kaliy (K^+)	Mmol/l	4,0–5,7
Natriy (Na^+)	Mmol/l	141–155

2.2. Qon – cho‘p o‘simligining tavsifi

[http://indasad.ru/lekarstvennye-rasteniya/3063-chistotel-lechebnie-svoystva](http://indasad.ru/lekarstvennye-rasteniya/3063-chistotel-lechebnie-svoystva-i-protivopokazaniya-lechenie-chistotelom) –i–[protivopokazaniya-lechenie-chistotelom](#) (N. V.Sokolova)

Qon – cho‘p (chistotel chistotel, borodavnik, chistuxa, molochay jelty, chistotel jelty, chistyak jelty; callisia) ko‘knorgullilar oilasiga va dukaklilarga mansub baland, o‘tsimon, tanasi kovak, to‘q zangori lirasimon bargli bo‘ta ko‘rinishida o‘simlik. Qon – cho‘pning gullari sariq rangda bo‘lib, ularning o‘rnida keyinchalik katta bo‘lmagan qo‘zoqlar pishib yetiladi. O‘simlik yoz mavsumida 2–3 marotaba hosilga kiradi va shu sababli samarali ko‘payadi hamda deyarli hamma joyda uchraydi.

Fanda qon – cho‘pning ikki turi ma‘lum:

- Chelidonium asiaticum – osiyo qon cho‘pi (balanligi 30–50 sm);
- Chelidonium magnus – katta qon – cho‘p (balanligi 50–120 sm).

Ikkala o‘simlik ham zaharlidir ammo qator foydali hossalarga ega, shuning uchun halq tabobatida faol qo‘llanadi.

O‘simlikning ruscha nomi – chistotel uning tanani turli so‘gal, xusunbuzar va tezda bitmaydigan jarohatlardan tozalash xususiyatlari uchun kelib chiqqan. Abu Ali ibn Sino davrida qaldirg‘ochlar o‘z bolalarining ko‘zlarini shu o‘simlik shirasi bilan davolaydi degan fikr mavjud bo‘lgan, shuning uchun uning

Chelidonium lotincha atamasi “qaldirg‘och” deb tarjima qilinadi. Boshqa ma’lumotlarga ko‘ra uni “qaldirg‘och o‘ti” deb ham nomlaydilar, chunki u qaldirg‘ochlar bahorda uchib kelgan vaqtda gullay boshlaydi, vegetasiyasining tugashi esa bu qushlar janubga qaytish vaqtga to‘g‘ri keladi.



1–rasm. **Qon – cho‘p o‘simligi**

Qon – cho‘p ekinzorlarda tez tarqalishi sababli unga begona o‘tga kabi qarshi kurashadilar.

Hozirgi vaqtda qon – cho‘p dunyoning ko‘p davlatlar farmakopeyasiga kiritilgan.

Qon – cho‘pning kimyoviy tarkibi

Qon – choʻpning barg, tomiri va achchiq (taxir) shirasida quyidagi moddalar mavjud:

- Askorbin kislota (C vitamini) va karotin (A vitamini);
- Organik kislotalar (olma, limon, yantar);
- Efir moylar, achchiqlar, mum va saponinlar;
- Tabiiy antibiotiklar (fitonsidlar);
- Zaharli alkaloidlar (xelidonin, sangvinarin, protopin, alokriptopin, koptizin).

Xelidonin va uning hosilalari: oksixelidonin, gomoxelidanin va metoksixelidonin alohida eʼtiborga loyiqdir. Bu alkaloid morfinga juda yaqin. Xelidonin kichik dozalarda ogʻriqsizlantiruvchi taʼsir qiladi, organizmga katta miqdorda tushganda esa – tomir tortishish va falajlarni chaqiradi. Alkaloidlar eng koʻp oʻsimlik tomirlarida boʻladi (0,5% gacha), ammo uning barglari ham zaharlidir.

Qon – choʻpning farmakologik hossalari

Qon – choʻpning farmakologik taʼsiri uning shirasidagi spesifik alkaloidlar mavjudligidan kelib chiqadi. Lola qizgʻaldoq yoki koʻknor shirasidan farqi oʻlaroq – uning shirasi qizil – zargʻaldak rangga boʻyalgan boʻlib, oʻziga hos hidga va kuchli bakterisid fungistatik taʼsirga ega.

Qon – choʻpdagi asosiy alkaloidlarni bir – biridan ajratish juda qiyin kechadi, shuning uchun ular alohida – alohida qoʻllanmaydi. Yuqorida qayd etilganday – xelidonin morfinga yaqin boʻlgani sababli markaziy asab tizimining faoliyatini bostiradi. Gomoxelidonin tomir tortishishni chaqiradigan zaharlar guruhiga kiradi va kuchli mahalliy ogʻriqsizlantiruvchi taʼsir qiladi. Protopin bachadon muskullariga taʼsir qiladi hamda markaziy asab tizimi reaktivligini pasaytiradi.

Qon – choʻp preparatlari bilan davolashga qarshi koʻrsatmalar

Tarkibida alkaloidlar bor har qanday preparatlar davolash uchun qoʻllanishiga qator qarshi koʻrsatmalar mavjud.

Qon – choʻpni zinhor qoʻllash mumkin emas:

- bolalarni davolash uchun;
- homiladorlik va emizish davrlarida;
- ruxiy buzilishlar va epilepsiyada;
- stenokardiya va yurakning jiddiy kasalliklarida. Qon – cho‘p preparatlari davolash uchun qo‘llanganda u arterial bosimni pasaytirishini hisobga olish zarur;
- qon cho‘pning alkaloidlari opiatlar kabi ta’sir qilib, ichaklar peristaltikasiga ta’sir qilib, ich qotishini chaqirishi mumkin;
- qon – cho‘p shilliq pardalarga ta’sir qilib, ko‘ngil aynishi, qayt qilish va diareyani chaqiradi.

Preparat miqdori me’yordan ko‘p qo‘llanganda toksik va gallyusinogen xodisalar paydo bo‘ladi, xushdan ketish, falajlanishlar rivojlanadi, og‘ir holatlarda hayvon o‘lishi mumkin.

Qon – cho‘pdan tayyorlangan preparatlarni qo‘llashning asosiy holatlari

Qon – cho‘p quyidagi patologik holatlarda qo‘llanadi:

- Teri kasalliklari. Ularga papillomalar (so‘gal), qadoqlar, zamburug‘li kasalliklar va shu jumladan qo‘tir, psoriaz, qichima, xusunbuzar, papilloma, ekzema, kuyish, jarohat va yaralar kiradi. Bu kasalliklarda qon – cho‘pni vanna, kompress va primochka shakllarida qo‘llash mumkin. O‘simlik mahalliy og‘riqsizlantiruvchi hossalarga ega bo‘lgani sababli uni kuyishda anesteziya uchun qo‘llaydilar.
- Halqum, quloq, burun va nafas olish tizimi kasalliklari: burun oqishi, bronxit, traxeit, laringit, angina, pnevmoniya, astma, ko‘k yo‘tal, sil. Qon cho‘pning antivirusli faolligi hamda spazmolitik va yallig‘lanishga qarshi ta’siri bronx – o‘pka tizimi kasalliklarini davolashda muhim rol o‘ynaydi;
- Qon – cho‘p gipertoniya, yurak aritmiyasi va aterosklerozda yaxshi samara beradi;
- Qon – cho‘p endokrin kasalliklari, xususan diabet va qalqonsimon bezining kasalligida (buqoq) qo‘llanadi;
- Oshqozon – ichak tizimi va ichki a‘zolar kasalliklari – gastrit, oshqozon yarasi, pankreatit, xolesistit, gepatit, enterokolit, buyrak kasalliklari;

– Qon – cho‘p tez – tez onkologik muammolarda xatarli va xatarsiz o‘smalarda qo‘llanadi. Xozirgi vaqtda bu zaharli o‘simlikning antikanserogen hossalari faol o‘rganilmoqda, chunki u metastazlar hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi;

– Bo‘g‘im va suyak kasalliklari – revmatizm, radikulit, podagra, osteoxondroz, artrit va artroz;

– Asab tizimi kasalliklari – bosh og‘rig‘i, migren, nevrozlar;

– Urg‘ochi hayvonlarning jinsiy a‘zolari kasalliklari – vaginit, kolpit, servisit, endometrioiz, bachadon bo‘yinchasi eroziyasi.

Qon – cho‘p preparatlarining shakllari

Qon cho‘pning shirasi

Halq tabobatida Qon – cho‘p shirasini tayyorlashning 2 usuli mavjud:

1 – usul: gullari bilan birga yangi yig‘ilgan, uzunligi 15 sm keladigan o‘simlik poyasidan qish mavsumiga shirani tayyorlash mumkin. Shirani ajratish uchun xomashyo go‘sht qiymalagichdan o‘tkaziladi va yaxshilab siqiladi. Olingan shira sovitgichga 3 kunga qo‘yiladi so‘ng dokadan sizdiriladi, toza idishga quyiladi va shira bijg‘iganda hosil bo‘lgan gaz chiqib ketishiga halaqit qilmaydigan mayda teshikchali qopqoq bilan yopiladi. 3 haftadan so‘ng bijg‘ish jarayoni tugaydi va tayyor dorivor shira kelgusi mavsumgacha sovitgichda saqlanadi.

2 – usul: gullari bilan birga yangi yig‘ilgan, uzunligi 12–15 sm keladigan o‘simlik poyasi go‘sht qiymalagichdan o‘tkaziladi va yaxshilab siqiladi. Keyin 1 l shiraga 500 ml aroq yoki 250 ml toza spirt qo‘shiladi.

Qon cho‘pning shirasi juda foydali bo‘lib, herpes, kuyish, xusnbuzar, teri zamburug‘i, oqma, qichima, epidermis umalanishi, kondiloma, poliplar va boshq. qo‘llanadi.

Qon – cho‘p damlamasi

Qon cho‘pdan damlamani tayyorlash uchun yangi yig‘ilgan yoki quritilgan ashyo olinadi.

1 choy qoshiq quruq ashyoga 1 stakan qaynoq suv quyilib, 15 daqiqa olib qo'yiladi va so'ng sizdiriladi. Damlama jigar, o't qopi, o'n ikki barmoqli ichak va siydik qovug'i kasalliklarida yaxshi yordam beradi. 1/3 stakandan kuniga 3 marotaba 5–7 kun mobaynida qabul qilinadi.

Qon – cho'p malhami

Qon – cho'pdan tayyorlangan tayyorlangan 20 g kukun 10 g lanolin va 70 g vazelin bilan aralashtiriladi. Malham zararlangan joylarga kuniga 2–3 marta suriladi. Bunday malham teri saratoni, qadoq, so'gal, papilloma, kondiloma, psoriaz, ekzema va teri silida yaxshi samara beradi.

Qon cho'pni teri kasalliklarida qo'llash

So'gal va papillomalar

So'galni qon – cho'pning yangi olingan shirasi bilan kuydirish mumkin. So'gal yoki papilloma atrofidagi teri yog'li krem bilan ximoyalanishi kerak. Shira o'smaga har 2–3 soatda suriladi. Bu muolaja sugal yoki papilloma to'liq qurib to'kilguncha bajariladi.

Teng miqdorda olingan yangi shira va propolisning spirtli nastoykasi (damlamasi) aralashmasi ham yaxshi yordam beradi. Uni ham yuqorida ko'rsatilgan tartibda qo'llash kerak.

So'gal va papillomalarni mahalliy davolashda qaynatma yoki nastoyka qabul qilinganda samara yanada yaxshiroq bo'ladi.

- Spirtli nastoyka 2 haftada 0,5 l spirt va 2 osh qoshiq quritilgan qon – cho'pdan tayyorlanadi. U 10–15 tomchidan ovqatdan oldin 1 oy qabul qilinadi.
- Qaynatma uchun 2 osh qoshiq yangi yig'ilgan qon – cho'pga 2 stakan sovuq suv quyiladi, qaynatiladi, 2 soat tindiriladi va sovitgichga qo'yiladi. 1 osh qoshiqdan ovqatdan oldin qabul qilinadi.

Ekzema

20 g quruq maydalangan ashyo sirlangan idishga solinib, ustidan 1 stakan qaynoq suv quyiladi, so'ng idish qopqoq bilan yopiladi va suv xammomiga 15 daqiqaga qo'yiladi. Keyin qaynatma uy haroratida 45 daqiqa sovitiladi, sizdiriladi,

maxkam yopiladigan shishali idishga solinadi. Preparat sovitgichda ko'pi bilan 2 kun saqlanishi mumkin. Qaynatma terining kasallangan joylariga suriladi.

Dermatit

Qichiydigan, kuchli yallig'lanish bosqichdagi teri kasalliklarini davolash uchun tez – tez qon cho'pning suvli nastoykasi qo'llanadi. Ko'pincha nastoyka bilan to'ldirilgan vannochkalar qo'llanadi. Buning uchun 10 g qon – cho'p ashyosi olinib, ustidan 100 ml qaynoq suv quyiladi, keyin 37 °C gacha sovitiladi. Vannochkalar har kuni 15–20 daqiqadan qabul qilinadi. Muolajalar 2–3 kun bajarilgandan so'ng qichishish kamayadi, giperemiya pasayadi, shishlar so'riladi, qashib zararlangan teri yuzasi tuzala boshlaydi.

Qayzg'oqni kamaytirish uchun nastoyka junlar asosiga ishqab singdiriladi.

2.2.1. O'simliklardan tayyorlanadigan dori vositalari

Uy hayvonlarini nafaqat dorilar bilan balki dorivor o'simliklar bilan ham davolash mumkin. Hammaga ma'lum bo'lgan choylar va yig'malar odam va itlarga barovar yordam beradi. Ularni tayyorlash texnologiyasi juda oddiydir. Yig'malardan tashqi va ichki qo'llanish uchun foydalaniladi. Qo'llash usuli bo'yicha yig'malar bir necha turlarga bo'linadi.

Priparkalar uchun (yumshatuvchi) qo'llanadigan yig'malarda o'simlikning maydalangan qismlari 1,5 mm dan oshmaydi. Ularni issiq suv bilan bo'tqa konsistensiyasigacha aralashtirib, matoga o'raydilar va teriga zich qilib qo'yadilar. Quruq priparkalar uchun o'simlik (qismlari 2 mm dan oshmagan bo'lishi lozim) matoga o'ralib o'rtacha qizdiriladi. Nastoy va otvarni tayyorlash uchun yig'malar eng ko'p qo'llanadi. Ular uchun o'simlikning maydalangan qismlari 4–6 mm dan oshmaydi. Ularni uy sharoitida damlab tindiradi va kechiktirmasdan qo'llaydilar. Tarkibi bo'yicha yig'malar oddiy (choy) va bir nechta, organizmga ta'siri bo'yicha o'xshash o'simliklardan tashkil qilgan – murakkab aralashmalar bo'ladi. Murakkab aralashmalar qo'llanganda davolovchi effekt kuchayadi. Ammo bir o'tlar boshqalarning ta'sirini kuchaytiradigan

aralashmalar, va o‘zaro qarshi ta’sir etadiganlar o‘tlar yig‘ilgan aralashmalar uchraydi.

Nastoykalar odatda aroq yoki 70% li spirtda tayyorlanadi. Maydalangan xom ashyo shishali bankaga solinadi, ustidan spirt quyiladi va maxkam yopiladi va uy haroratida 7 kunga qorong‘i joyga olib qo‘yiladi. Keyinchalik nastoyka filtrlanadi.

Sharbatlar – suyuq dori shakli bo‘lib, yangi xom ashyodan tayyorlanadi. Yangi sharbatni tayyorlash uchun o‘simlikning yuvilgan qismlari go’sht qiymalagich yoki sokovijimalkadan o‘tkaziladi. Olingan massa dokadan sizdiriladi. Bunday sharbatda o‘simlikning suvda eritilgan barcha qimmat komponentlari mavjud.

Kukunlar – yaxshi quritilgan va maydalangan xom ashyo. Ular suvda yoki sutda aralashtirilib qabul qilinadi. Xom ashyo kukun shakligacha havoncha (o‘g‘ir) yoki oshxona tegirmonida maydalanadi.

Qaynatma. Qaynab turgan suvga o‘simlikning po’shti, tomiri yoki boshqa qattiq qismlari 300 ml suvga 15 ml yoki 3 choy qoshig‘i hisobidan solinadi va 20 daqiqa qaynatiladi. Undan keyin tindiriladi va sovutiladi. Nastoyday ishlatiladi.

Qo‘llanadiga o‘simlikda pestisidlar bo‘lmasligiga ishonch xosil qilish lozim. Yangi uzilgan o‘simliklar shu kunning ichida qo‘llanishi kerak, yoki ularni yaxshi shamollantirilgan xonada quritish kerak (o‘simliklar donalari alohida – alohida quritiladi. Quritilgan o‘simliklar o‘z xususiyatlarini uzoq muddat saqlaydilar, ammo saqlanish vaqti 1 yildan oshmasligi zarur.

2.3. Itlarni saqlash va oziqlantirish tartibi

Itlarni saqlash tartibi

Itlarni saqlash uchun xonalarni qurishda, ular u yerda vaqtining ko‘p qismini o‘tkazishini inobatga olish lozim. Shuning uchun xonalar bir qator talablarga javob berishlari kerak: itlarni yomg‘ir, shamol, chang, qish sovug‘i va yoz issig‘idan himoya qilish, begona odamlar, daydi va yovoyi hayvonlar hamda kuchli shovqinlardan (o‘tayotgan avtomobillar va boshq.) himoya qilish. Xonalar atrof yerdan balandroq va quruq, odamlar yashaydigan, chorvachilik va xo‘jalik

qurilmalardan yiroqroq joylarda qurilishi lozim. Xonalar yetarlicha keng, quruq, yorug, havosi toza bo'lishi kerak. Shamol, chang va quyosh nurlari ta'siridan haddan ziyod qizib ketishidan ximoya qilish maqsadida uning atrofida ko'kalamzorlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

It guruhlarini joylashtirilish.

Bir guruh itlarni saqlash uchun mo'ljallangan joy yuqorida aytib o'tilgan talablarga javob berishi kerak hamda uni balandligi 2 m dan kam bo'lmagan devor bilan o'rash lozim. Agar itlar soni ko'p bo'lmasa va yer maydoni kichik bo'lsa, devorda eshik qoldiriladi, aks holda darvoza quriladi. Ularga ishonchli qulf qo'yilib doim yopiq turishlari kerak.

Itlarni saqlash uchun mahsus joylar – kabinalarga bo'lingan pavilonlar quriladi. Kabina har bir itga alohida mo'ljallangan bo'lib unga usti ochiq yayrash maydoncha (volyer) birikib turadi. Kabinaning uzunligi 2 m, eni 1,5 m, old devorining balandligi 2–2,5 m, orka devorniki 1,5–2 m; kabina eshigining balandligi 1,7 m, eni 0,7 m bo'lishi lozim. Eshik tashkariga ochiladi. Kabinaga yorug'lik tushish uchun, uning ustida oynavand rom qo'yiladi. Eshikning pastki qismida, volyerga chiqish uchun, 40x50 sm li tuynuk bo'lishi kerak. Yozda tuynuk ochiq turadi, qishda esa brezent bilan yopiladi.

Volyerning uzunligi 3 m, eni 2 m, balandligi 2,2 m bo'ladi. Volyerlar orasi, balandligi 2,2 m keladigan devor bilan yopiladi. Volyerning old qismida eshik yasaladi, uning balandligi 1,8 m eni 0,7 m bo'lishi kerak. Eshik ichkariga ochiladi. Har bir kabina ichida budka quriladi. Budka tuynugining o'lchamlari 40x50 sm ga teng bo'lish kerak. Uning tomi yassi, silliq bo'lishi kerak, chunki itlar yoz faslida uning ustiga chiqib yotishni yoqtiradilar. Sovuq tushganda budkaning ichiga somon, hashak yoki yog'och qirindisidan to'shama to'shaladi. Pavilonlar g'isht, tosh, taxtalardan quriladi. Volyerlarning yon devorlari taxtadan, old devori va eshigi esa sim to'rdan yoki temir panjaradan yasaladi. Agar it qo'shni volyerga sakrab o'tadigan bo'lsa unda devor ustidan sim to'r tortiladi. Kabina va volyer pollari taxtadan yasalishi kerak. Issiq iqlimda pollar beton yoki pishitilgan loydan qurilishi mumkin. Bunday hollarda itni shamollashdan asrash

maqsadida kabinalarga 1x1,6 m kattalikda yog‘och shitlar yotqiziladi. Volyerning old tomonidan, 4–5 m nariroqda, balandligi 35–40 sm keladigan ustunchalar yerga ko‘mib qo‘yiladi. Ularga itlar tozalanganda bog‘lab qo‘yiladi. Ustunchaning ustiga diametri 20–25 sm keladigan yog‘och maydoncha qokib o‘rnatiladi. Unga it tozalash paytida o‘zining old oyoqlarini qo‘yib turadi. Ustunchalarning orasi 3 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Itlarning soni ko‘p bo‘lsa 250–300 m nariroqda izolyator quriladi. Itlarni ko‘paytirish va it bolalarni o‘stirish uchun mo‘ljallangan pitomniklarda undan tashqari tug‘ish, it bolallarni saqlash, itlarni yuvish va ovqat pishirish xonalari bo‘ladi. Katta pitomniklarda veterinar ambulatoriya va stasionar quriladi.

Itlarni oziqlantirish tartibi

Xizmat itlarining normal hayot kechirishi va belgilangan vazifalarni bajarishi uchun qo‘shimcha oziq moddalar talab etilib, buni ozuqa ratsionlarini tuzishda inobatga olish zarur bo‘ladi. It muskullarining ishlashi jarayonida organizmda energiya, oqsil, yog‘, uglevod, mineral moddalar va vitaminlarning sarflanishi oshadi. Mehnat jarayoni qanchalik og‘ir bo‘lsa, oziq moddalarga bo‘lgan talab ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Hamma xizmat itlari bir xil vazifani bajarishi vaqtida bir xil miqdordagi energiyani sarf qilmaydi. Bajariladigan ishga sarflanadigan energiya miqdori itni o‘rgatish, shuningdek charchash darajasiga va bundan tashqari hayvonning individual xususiyatlari – zoti va tana tuzilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Tinch holatda turganidan itga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan xizmat itlari ish uchun 30 % dan ko‘proq energiya sarf qiladi. Xizmat itlarining 1kg tana vazniga sarflaydigan energiya miqdori 3– jadvalda keltirilgan:

4–jadval

Tinch xolatda bo‘lgan itning 1 kg tana massasiga nisbatan talab etiladigan energiya miqdori.

Tana massasi, kg	kDj.	Tana massasi, kg	kDj.
3–4	575	15–20	375

4–5	530	20–25	340
5–6	495	25–30	320
6–7	475	30–40	305
7–8	460	40–50	285
8–9	440	50–60	265
9–10	425	60–70	250
10–15	410	70 va undan ortiq	235
Ilova: 1kk = 4,29 kDj. Tinch xolatda bo‘lgan itning 1 kg massasiga o‘rtacha 87 kilokaloriya ya’ni 365 kDj to‘g‘ri kelish kerak.			

Qish mavsumida xizmat itlari isitilmaydigan xonalarda saqlanganda energiya ehtiyoji 20 % ga oshadi. Xizmat itlarining oqsilga bo‘lgan talabi harakat qilmaydigan itlarga nisbatan o‘rtacha 30–50 % ga, yog‘ga 15 % ga va yengil hazm bo‘ladigan uglevodlarga esa 30 % ga oshadi. O‘rtacha ish bajaradigan xizmat itlarining ratsionida oqsil miqdori, harakat qilmaydigan itlarga nisbatan, 40 % ga yuqori bo‘lishi kerak, shunda itlar oqsilga bo‘lgan talabini 50 % go’sht, baliq va sut mahsulotlari hisobidan qoplashlari lozim.

Xizmat itlarining ratsionida uglevodlarning yetishmasligi ularning ozib ketishiga olib keladi. Itlar ratsionida yog‘ qanchalik kam bo‘lsa, unda uglevodlar shunchalik ko‘p bo‘lishi kerak. Xizmat itlarining ratsionini tuzish vaqtida to‘yimli moddalarga bo‘lgan ehtiyoj normasini e’tiborga olib, ratsionning taxminiy tarkibi tuziladi.

Quyidagi keltirilgan raqamlarda katta yoshdagi xizmat itlarining bir sutkadagi energiyaga bo‘lgan talabiga nisbatan tuziladigan taxminiy ratsion foiz miqdorida ko‘rsatilgan:

5–jadval

**Katta yoshdagi xizmat itlari uchun bir sutkaga tuziladigan
taxminiy ratsion (foiz miqdorida)**

№	Ozuqa	Foiz miqdorida
---	-------	----------------

1	II–kategoriyali (toifa) go‘sh	25 % (20–30)
2	Yormalar (krupa)	53 % (45–60)
3	Non	15 % (10–15)
4	Kartoshka	5 % (3–7)
5	Sabzavotlar	2 % (1–3)

Masalan, tirik vazni 30–40 kg keladigan qo‘riqchi itning bir sutkalik ratsioniga 5– jadvalda keltirilgan quyidagi ozuqa mahsulotlarni kiritish mumkin:

6–jadval

Xizmat itlari ratsioni (miqdoriy o‘lchovda)

№	Ozuqa nomi	Miqdori (gr)
1	Go‘sh mahsulotlari	400
2	Yorma	600
3	Kartoshka, sabzavotlar	300
4	Hayvon yog‘i yoki margarin	13
5	Tuz	15
6	Suyak uni	15

Agarda ratsiondagi belgilangan go‘sh o‘rniga quruq ozuqa mahsulotlari berilsa, to‘yimlilikiga qarab ayrim paytlarda ratsion miqdori go‘shlikka nisbatan ikki barobar ko‘paytiriladi.

Shuningdek, bunday itlarga go‘sh o‘rniga baliq ham bersa bo‘ladi.

Itlarga arzon narxdagi yormalardan berish lozim, masalan tariq, arpa, suli yormalari va boshq. Kasallangan xizmat itlariga esa guruch, bug‘doy yoki grechixa yormasi berilishi yuqori samaraga olib keladi. Go‘sh bilan yormaning o‘rniga sut yoki sut mahsulotlarini almashtirib berish ham mumkin. Bundan tashqari xizmat itlariga bug‘doy unidan tayyorlangan qora non ham beriladi. Agarda ratsion tarkibiga qotgan nonning kiritilishi, yanada yaxshi bo‘ladi. Itlar ovqatiga hayvonlarning eritilgan yog‘ini qo‘shgan ma’qul.

Ratsionga sabzavotlardan karam, sabzi, qizil lavlagi qo'shiladi. Itlar po'stlog'i va tuxumidan tozalanib, pishirilgan qovoqni juda sevib iste'mol qiladilar. Yoz mavsumida itlarga pomidor va baqlajon berish tavsiya qilinadi. Hayvonlarga karamni yangi uzilgan yoki tuzlangan holatda berish ham mumkin. Erta bahor va yoz paytida itlarga yangi chiqqan qichitqi o'ti, qoqi va shovulni maydalab berish foydalidir.

Bir xil ovqat xizmat itlarining badiga tez tegadi va buning oqibatida ratsion tarkibidagi to'yimli moddalarning hazm bo'lishi pasayadi. Shu sababdan ham ratsion tarkibidagi ozuqa moddalarni almashlab turish lozim. Bu asosan go'sht mahsulotlari, yorma va sabzavotlarni almashlab turish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Safar sharoitida ovqat pishirishning ilojisi bo'lmaganda xizmat itlarini galetalar, konservalar va konsentratlar (quruq ozuqa) bilan boqadilar. Safar bir necha kunga davom etgan taqdirda itlarga non yoki sut bilan non yoxud non bilan suv hamda qoq nonni suvda ivitib berish mumkin. Agarda xizmat itlari shaxsiy tarkibda saqlansa, unda ratsionning asosiy qismini egasidan qolgan qoldiq ovqatlar tashkil qilishi mumkin.

It bolalarining rivojlanishi ularning tug'ilishidan to sutdan ajratilganicha, asosan dastlabki ikki xafta ichida, emizdiradigan qanjichni to'g'ri oziqlantirish bilan bog'liq bo'ladi. It bolalarini qo'shimcha oziqlantirishni sutdan boshlash lozim. Bunda albatta yangi, suyultirilmagan va sa'l isitilgan (27–30°) sut beriladi. Echki yoki qo'yning suti eng yaxshi hisoblanadi, chunki bu hayvonlar sutining tarkibi it sutining tarkibiga yaqin bo'ladi. Sigir sutining tarkibini it sutining tarkibiga yaqinlashtirish uchun uning 0,5–1 litriga 1 ta xom tovuq tuxumi qo'shiladi. It bolalari 2 haftalik bo'lgandan so'ng ularga xom go'sht berib turish kerak.

It bolasi va yosh itlarga berladigan ozuqa mahsulotlarining kunlik tahminiyl normalari №3 jadvalda keltirilgan:

It bolalarni oziqlantirish me'yorlari.

№	Ozuqa nomi	1 oylikgacha	1–3 oylik	3–6 oylik	6–12 oylikdan katta
1	Go'sht mahsulotlari	50	150	350	350
2	Yorma	50	100	250	250
3	Kartoshka	50	150	400	400
4	Hayvon yog'i yoki margarin	3	4	10	10
5	Tuz	5	5	10	10
6	Suyak uni	4	11	14	14
7	Non	70	150	300	300
8	Sut	150	400	100	100
9	Kaliy gliserofosfati	40 dona	40 dona	40 dona	40 dona
10	Kalsiy laktati	40 dona	40 dona	40 dona	40 dona
11	Bur	20	20	20	20
12	Fitin	10 dona	10 dona	10 dona	10 dona
13	Aktivlashtirilgan ko'mir	10 dona	10 dona	10 dona	10 dona
14	Pishloq	20	50	150	150
15	Droji	1	2	6	6
16	Tuxum sarig'i	1	1	1	–

2.4. Teri kasalliklarining tavsifi

S. V. Timofeyev, Yu. I. Filippov va boshq. (2007)

**Teri kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi to'g'risida
umumiy ma'lumotlar**

Teri kasalliklari paydo bo'lishining sabablari juda ko'p. Kelib chiqishi bo'yicha ular ekzogen va endogen bo'lishi mumkin. Ekzogenlarga mexanik (uzoq vaqt siqilish, ishqalanish, lat yeyish); fizik (issiqlik, sovuq, ionlashuvchi radiasiya); turli kimyoviy (kislota va ishqorlar) va biologik (bakteriya, virus, zamburug' va boshq.) omillar kiradi. Endogen omillarga birinchi navbatda nevroz va stresslarga olib keladigan markaziy va periferik asab tizimlari funksiyalarining buzilishlari kiradi.

Undan tashqari teri kasalliklarini tomirlarning funksional yoki organik o'zgarishlari (endariteriit, tromboflebit, kollagenozlar) chaqiradi. Teri kasalliklari o'sma metastazlarida (sarkoma), allergik reaksiyada (tuberkulinizasiya) hosil bo'lishi mumkin.

Ayrim teri kasalliklarida irsiy omillar yotadi.

Tug'ma teri kasalliklari xomilaning patologiyalarida: infeksiya tushishi, intoksikasiya, qon aylanishining buzilishi va boshq. rivojlanadi. Bunday kasalliklar avloddan avlodga o'tmaydi.

Teri kasalliklarining diagnostika asoslari.

Teri kasalliklarining diagnostikasi teri qoplamasini astoydil ko'zdan kechirish va tekshirishga asoslanadi. Yaxshi to'plangan anamnez katta ahamiyat kasb etadi. Anamnez ma'lumotlarini to'plaganda saqlash, oziqlantirish va kasal hayvonning ekspluatatsiyasiga aloxida e'tibor beriladi. Hayvon egasidan hayvonda avvaldan bo'lgan kasalliklar to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Kasallikning hosil bo'lgan vaqti va rivojlanish xususiyatlari, uning mavsumiyligi va yashash joyi bilan bog'liqligi aniqlanadi.

Qashinish, yalash, g'ajish bilan kechadigan terining qichishishi (qichima, Auyeski kasalligi, qutirish) alohida e'tiborga loyiq. Ammo bu belgining kuchi va jadalligi turli hayvonlarda har xil bo'lib, asab tizimining qo'zg'aluvchiligiga bog'liqligini esda tutish lozim.

Kasal hayvonni ko'zdan kechirish ishlari iliq va yaxshi yoritilgan, yaxshisi tabiiy yorug'likda, xonada o'tkaziladi. Hayvonning butun teri qoplamasi tekshiriladi. Teri kasalliklarining obyektiv belgilariga teridagi har xil patologik jarayonlarini klinik ifolaydigan turli morfologik elementlari kiradi. Ular shish, emfizema, yotoq yara, gangrena va ekzemalar kabi kasalliklar bo'lishi mumkin.

Dermatitlar

Dermatit – terining toshmalar hosil bo'lmasdan yallig'lanishi.

Etiologik va klinik belgilar bo'yicha quyidagi dermatitlar: travmatik; medikamentoz; termik; rentgenli; jarohat oldi; sugalli; nekrobassillyozli; bardali va parazitar tafovut qilinadi.

Hayvonlar orasida eng ko'p travmatik dermatit uchraydi. U terining qashib tinalishi, lat yeyishlari, egar – jabduq bilan ishqalanishi, qattiq polda ko'p yotish kabi mexanik qo'zg'olishida hosil bo'ladi. Dermatit tizza bo'g'imi, son, tushoq va karpal bo'g'imlar, ayniqsa dorsal yuzalarida, paydo bo'ladi, chunki bu yerdagi teri tez – tez siljib, pastdagi to'qimalardan ajralishi mumkin. Bu sohalardagi dermatitlar ko'p hollarda limfoekstravazatlar va travmatik bursitlar bilan birga kechadi.

Kechishi bo'yicha o'tkir va surunkali travmatik dermatitlar uchraydi.

Klinik belgilar. Shikast lokalizatsiyasi, darajasi va davomiyligi hamda teri sezuvchanligi, hayvon semizligi, organizmning mahalliy va umumiy qarshiligi klinik belgilar kam bilinadigan yoki yaqqol ifodalangan bo'lishi mumkin.

O'tkir travmatik dermatitda zararlangan joydagi junlar to'liq yoki qisman ishqalanib yemiriladi, ayrim hollarda epidermis ham so'rg'ichsimon qavatigacha ishqalanadi. Bunda og'riq va mahalliy xaroratning ko'tarilishi kuzatiladi. Avval teri qizil rangga kiradi, kapillyar qon oqishi paydo bo'lib keyinchalik teri nozik qonli po'stloqchalar bilan qoplanadi. Chegaralangan travmatik shish rivojlanib, yallig'lanish shishga aylanadi. Yiring hosil qiluvchi infeksiya tushganda chegaralangan travmatik shish yallig'lanishga aylanadi. Jarayon davolanmaganda abscess yoki flegmona rivojlanadi.

Ayrim paytlarda o'tkir travmatik dermatit surunkali shaklga o'tadi. Surunkali travmatik dermatitda qata – qayta shikastlanadigan terining juni yo'qoladi, katta shish rivojlanadi, kuchsiz og'riq reaksiyasi qayd etiladi, shish sohasidagi teri va teri osti kletchatkasi hujayrali infiltrasiya va proliferasiya holatida bo'lib, sklerotik yo'g'onlashgan bo'ladi. Teri kam harakatli bo'lib, tabiiy elastiklikni yo'qotadi, quriydi, unda burmalar paydo bo'ladi, yog' bezlari atrofiyaga uchraydi va natijada yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi. Bunda stafilo–streptokokkli infeksiya rivojlanishi va patologik jarayon yiringli dermatitga aylanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Yiringli dermatit ifloslangan terining mexanik shikasti yoki zararlangan teri uzoq vaqt kimyoviy moddalar va go'ng bilan qo'zg'atilishida hosil bo'ladi.

Klinik belgilar. Kasallikka yaqqol ifodalangan teri va teri osti kletchatkaning shishishi, og‘riq reaksiyasi, tananing mahalliy va umumiy harorati ko‘tarilishi xos bo‘ladi. Yiringlash jarayonlari rivojlanadi, sklerozga chalingan teri nekrotik parchalanadi. U po‘stloqchalar va quyuq, yopishqoq va badbo‘y xidli yiring bilan qoplangan bo‘ladi. Yaqqol keratoliz natijasida teridagi yoriqlar kattaradi, so‘rg‘ichsimon qavat ochiladi. Po‘stloqchalar va quyuq yiring olib tashlanganda teri nuqsonining tubida yorqin – qizil gipertrofiyalashgan so‘rg‘ichlar aniqlanadi, ular tuzilishi bo‘yicha yallig‘langan granulyatsion to‘qimaga o‘xshaydi. Yiringli dermatit tushoq bo‘g‘imining volyar yuzasida joylashganda so‘rg‘ichlar doim qo‘zg‘aladi. Reseptor apparat uzoq vaqt g‘o‘zg‘alishi esa trofika buzilishiga va jarayon yomonlashishga olib keladi. Natijada ayrim so‘rg‘ichlar nekrozlashadi, boshqalari – giperplaziyaga uchraydi va teri yuzasidan bo‘rtib chiqadi. Teri va teri osti kletchatkada skleroz rivojlanadi.

Kasallikni chaqirgan sabablar o‘z vaqtida bartaraf etilmaganda va u tegishli davolanmaganda oyoqning yiringli dermatiti surunkali va keyinchalik verrukoz (sugalli) shaklga o‘tadi.

Davolash. Davolash tartibi kompleksli bo‘lishi lozim. junlar olib tashlangandan so‘ng zararlangan sovun bilan yuviladi va 2% li xloramin, 0,5– 2% li kaliy permanganati va boshqa antiseptiklar bilan vannalar qo‘llanadi. Zararlangan teri yuzasidan nekrozlashgan to‘qimalar olib tashlanadi va u spirtli eritmalar bilan yuviladi yoki murakkab bakteriostatik kukunlar sepiladi.

Yiringli dermatit so‘rg‘ichlar gipertrofiya va giperplaziya bilan kechganda tozaluvchi antiseptik vannalardan so‘ng zararlangan teri va atrofiga spirt – gliseringa (50x50) namlangan tampon bilan ishlov beriladi yoki 2% li spirtli formalin eritmasiga namlangan bog‘lam qo‘yiladi. Bunday applikasiyalar kunaro 2–3 marta almashtiriladi, keyin bakteriostatik malhamlar yoki linimentlar (sintomisin emulsiyasi, A. V. Vishnevskiyning balzamik malhami va boshq.) bilan bog‘lamlar qo‘yiladi. Granulyasiyalar paydo bo‘lgandan so‘ng epitelizasiya o‘rishini yaxshilovchi Lassar pastasi va boshqa malhamlar qo‘llanadi. Jarayon tananing boshqa joylarida rivojlanganda tez – tez almashiniladigan bog‘lamlar

qo'llanadi. Teriga qo'rg'oshin va boshqa burishtiruvchi primochkalar qo'yiladi, pioktanin, brilliant yashili va malaxit yashili, metilen ko'kning spirtli eritmalari qo'llanadi. Keyin zararlangan yuzaga sintomisin emulsiyasi, A. V. Vishnevskiyning balzamik malhami bilan yumshatuvchi – bakterisid yengil himoya bog'lam qo'yiladi.

Yumshatuvchi va keratolitik malhamlari, qisqa novokain qamali bilan parafinli yoki ozokeritovmi applikasiyalar yaxshi samra beradi. Undan tashqari vaporizasiya, to'qimali terapiya, pirogenal, antibiotiklar qo'llanadi. Organizmning umumiy ahvolini yaxshilovchi va infeksiyani bostiruvchi boshqa vositalar qo'llanadi.

2.5. TADQIQOT NATIJALARI

2.5.1. Itlar orasida jarrohlik va shu jumladan teri

kasalliklarining uchrashi

Samarqand shahrida itlar orasida yuqumsiz kasalliklarning tarqalishi o'rganilganda quyidagilar aniqlandi: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, Veterinariya fakulteti, Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya kafedrası qoshidagi jarrohlik klinikasida 2014 yilda 250 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlar tekshirildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardagi patologiyalar 89 (35,6%) jarohatlarga, 70 (28,0%) allig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 62 (24,8%) teri kasalliklariga, 29 (11,6%) suyak sinishlariga to'g'ri keladi.

2015 yilda 251 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlar tekshirildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 96 (38,25%) jarohatlarga, 71 (28,29%) yallig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 62 (24,7%) teri kasalliklariga, 22 (8,27%) suyak sinishlariga to'g'ri keladi.

8–jadval

2014–2015 yillarda Samarqand shahrida itlar orasida jarrohlik kasalliklarining uchrash darajasi

Yil	Jarrohlik kasalliklar	Jarohatlar	Yallig'lanish jarayonlar va o'smalar	Teri kasalliklari	Suyak sinishlari
2014 yil	250	89 (35,6%)	70 (28,0%)	62 (24,8%)	29 (11,6%)
2015 yil	251	96 (38,25%)	71 (28,29%)	62 (24,7%)	22 (8,76%)
Jami	501	185 (36,93%)	141 (28,14%)	124 (24,75%)	51 (10,18%)

Jami 2014 va 2015 yillarda 501 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlar tekshirildi. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 185 (36,93%) jarohatlarga,

141 (28,14%) yallig‘lanish jarayonlar va o‘smalarga, 124 (24,75%) teri kasalliklariga, 51 (10,18%) suyak sinishlariga to‘g‘ri keladi.

Itlardagi jarrohlik kasalliklaridan jarohat, yopiq mexanik shikastlanish, uchinchi qovoqning yallig‘lanishi, teri va quloq kasalliklari, stomatit, o‘smalar tez – tez uchrab turadi. Bu kasalliklar hosil bo‘lishiga itlarni noto‘g‘ri saqlash va oziqlantirish, urishtirish, avtohalokatlar, irsiy nuqsonlar sabab bo‘ladi.

Itlar orasida teri kasalliklarining uchrash darajasi

Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya kafedrasida qoshidagi jarrohlik klinikasida yuritiladigan kasal hayvonlarni qayd etish jurnali o‘rganib chiqilganda quyidagi ma’lumotlar olindi. Jami 2014 va 2015 yillarda 501 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 124 (24,75%) tasida teri kasalliklari aniqlandi. Shulardan 16,55% ni dermatitlar, 7,1% ni ekzemalar va 1,1% ni aknelar tashkil qiladi.

Dermatitlar asosan 4 yoshgacha bo‘lgan va kamroq hollarda katta yoshli itlarda kuzatiladi. Bu kasallik qandaydir bir jinsda ko‘proq uchrashi aniqlanmadi. Ekzemalar barcha yoshdagi hayvonlarda uchraydi, ammo 2–3 yoshli urg‘ochilarda va 2–9 erkak itlarda ko‘proq qayd etildi. Erkak itlarda ekzemalar 1,5 marta ko‘proq kuzatiladi.

Zararlanish lokalizatsiyasi doimiy joyga ega bo‘lmay, turli sohalarda rivojlanadi. Ekzema va dermatitlar ko‘pincha metislarda rivojlanadi.

2.5.2. Klinik tekshirish natijalari

Nazorat guruhidagi itlarni 10% li qon – cho‘p qaynatmasi bilan davolashda terida qo‘zg‘alishlar va kuyish alomatlari kuzatilmadi.

Dermatit bilan kasallangan itlarni davolashda 10% li qon – cho‘p qaynatmasi nisbatan terapevtik samaraga ekanligini ko‘rsatdi. 10% li qon – cho‘p qaynatmasi bilan davolashning birinchi kunlaridan boshlab kasal hayvonlardagi klinik holat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi. Masalan, qichishish alomatlari kasallikning 1–2 kunlaridan yo‘qola boshladi, terining giperemiyasi 4 – kunlarda yo‘qoldi, dermatit o‘chog‘idagi ekssudatsiya 5 – kundan so‘ng to‘xtadi

va teri shishi 5–6 kunlarda pasaydi. 10–15 kunlardan so‘ng terining jun qoplamasi tiklana boshladi.

Tajriba guruhidagi dermatit bilan kasallangan itlarni davolashda qon – cho‘pning 25% li malhami nisbatan yuqoriroq terapevtik samaraga ekanligini ko‘rsatdi. 25% li malham bilan davolashning birinchi kunlaridan boshlab kasal hayvonlardagi klinik holat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi. Masalan, qichishish alomatlari kasallikning 1–2 kunlaridan yo‘qola boshladi, terining giperemiyasi 3–4 kunlarda yo‘qoldi, dermatit o‘chog‘idagi ekssudatsiya 3 kundan so‘ng to‘xtadi va teri shishi 5–6 kunlarda pasaydi. 10–15 kunlardan so‘ng terining jun qoplamasi tiklana boshladi.

25% li qon – cho‘p malhami bilan davolangan itlarda nazorat guruhidagi itlarga nisbatan klinik holatidagi o‘zgarishlar o‘rtacha 4 kunlar avval yaxshilanishga boshladi.

Dermatitlarni davolash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari ko‘rsatishicha, qon cho‘pdan ishlab chiqilgan dori vositasi bu jarayonni 9–10 kunlarda bartaraf etishga imkon yaratadi. Bunda uning 25% li malhami tuzalish muddatini 5–6 kunlarga qisqartiradi.

9–jadval

Dermatit bilan kasallangan itlarni 10% li qon – cho‘p qaynatmasi va 25% li malhami bilan davolashda klinik ko‘rsatkichlar

Klinik ko‘rsatkichlar va ularning namoyon bo‘lish muddatlari	
10% li qon – cho‘p damlamasi	25% li qon – cho‘p malhami
Qichishish 1–2 kunlarda yo‘qoldi	Qichishish 1–2 kunlarda yo‘qoldi
Giperemiya 4 chi kunda yo‘qoldi	Giperemiya 3 chi kunda yo‘qoldi
Terining shishishi 5–6 kunlarda pasaydi	Terining shishishi 2–3 kunlarda pasaydi
Ekssudatsiya 3 chi kunda yo‘qoldi	Ekssudasiya 3 chi kunda yo‘qoldi
Klinik tuzalish belgilari 9–10 chi kunlarda namoyon bo‘ldi	Klinik tuzalish belgilari 5–6 chi kunlarda namoyon bo‘ldi

Jun qoplamasi 10–15 kunlarda tiklanib boshladi	Jun qoplamasi 7–11 kunlarda tiklanib boshladi
--	---

2.5.3. Gistopatologik tekshirishlar natijalari

Tajriba guruhidagi hayvonlarni 25% li qon – cho‘p malhami bilan davolaganda patologik jarayon atrofida terida o‘ziga hos reaksiya kechadi, ya’ni epidermis o‘sadi va terining biriktiruvchi – to‘qimali asosi sal shishadi. Mikrosirkulyar oqim tomirlari hosil bo‘lib, granulyatsion to‘qima rivojlanib boshlaydi. Epidermis tiklanishi uning patologik jarayonning chetlarida saqlanib qolgan joylardan boshlanadi. Bazal qavatning hujayralari ko‘payib, epidermisdan holi yuzaga siljiydi, chunki bu yerda hujayrali detrit ularga halaqit bermaydi.

Yangi hosil bo‘lgan hujayralar dastlab bir qator bo‘lib joylashib, bazal qavatni hosil qiladi. Keyinchalik, bu qavatning hujayralari bo‘linishi natijasida ko‘p qavatli yassi epiteliy hosil bo‘ladi. Elastik tolalar yaxshi ko‘rinmaydi va ular tabiiy holatigacha rivojlanmaydi.

Regenerasiya alohida epitelial so‘rg‘ichlar tomonidan boshlanadi, chunki dermada ular yuqori qavatlarga nisbatan ko‘proq yetilgan bo‘ladi. To‘qimalar shishi saqlanib qolgan.

Keyinchalik, davolashning 6 – kuniga borib, zararlangan joyda epidermisning barcha qavatlarida epitelial qavat aniq ko‘rinadi, ammo muguz modda va muguzlashgan hujayralar yetarlicha ifodalanmagan. Teri asosidagi alohida epitelial hosilalar asta – sekin so‘rilib, nisbatan tekis yuzani hosil qilgan. Epidermisning bazal qavatga yopishib turgan biriktiruvchi to‘qimali tolalarning kollagenizasiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi, yosh biriktiruvchi to‘qima ko‘rinadi.

Jun tolalari qinlarining yo‘nalishi bo‘ylab yaqqol keratinizasiya rivojlangan. Biriktiruvchi to‘qimaning tolalari kuchsiz gialinizasiyaga uchrab, tuzilishi va ko‘rinishi bo‘yicha bir xil bo‘lib qolgan. Yosh granulyatsion to‘qimada asosan fibrosit va fibroblastlar namoyon bo‘ldi. Shish asta – sekin yo‘qolib, yangi hosil bo‘lgan tomirlar miqdori ko‘payib bormoqda. Terining alohida joylarida avval qayd etilgan epidermisning nuqsonlari uning o‘sish

qavatidagi hujayralar proliferatsiyasi hisobidan tezda tiklanib kelmoqda. Undan tashqari, bu sohada mitoz shakllarining ko'payishi kuzatiladi.

Nazorat guruhidagi hayvonlarni 10% li qon – cho'p qaynatmasi bilan davolaganda terining regeneratsiyasi sekinroq kechgan. Birinchi bosqichda mikroskopik manzarada yangi rivojlanib kelayotgan yassi epiteliy noziklanishi va zararlangan yuzaga seroz suyuqlik sizib chiqishi kuzatiladi. Regenerativ jarayonlar sust ifodalanagan. Yosh hujayralar qavati chegaralangan. Chuqurroq qavatlarda seroz ekssudat to'planishi va venoz giperemiya kuzatildi. Ko'p miqdorda vaskulyarizatsiyalashgan hujayralar to'planadi. Perevaskulyar shish rivojlanadi va tomirlar atrofida limfoid hujayralar to'planadi. Vakuolli distrofiya holatida bo'lgan hujayralardan tashqari ko'p yog' hujayralar topiladi. Jun piyozchalarining chegaralari noaniq bo'lib, yog' to'qimasi bilan o'ralgan, muskul tolalari donador distrofiya holatida.

Regeneratsiyaning o'rta bosqichida hosil bo'lgan qoraqo'tir serozli ekssudatga to'yingan bir xil oksifil massa sifatida, ichi kovakli bo'ladi. Qoraqo'tirdagi hujayrali elementlar (asosan leykositlar va makrofaglar) parchalanish holatida bo'lib, yaqqol ko'rinmaydi. Hujayrali detrit asosan bir xil bazofil massa ko'rinishida. Epiteliya yaxshi rivojlanmagan va sust tiklanadi, uning regenerativ xususiyatlari pasaygan. Qon tomirlar kam to'lgan.

10–kunga borib regenerativ jarayonlar nisbatan kuchliroq ifodalanadi. Ko'p miqdorda yosh biriktiruvchi to'qimali hujayralar ko'rinadi. Ular asosan fibroblastlar bo'lib, oralarida leykositlar joylashgan. Granulyatsion to'qima zonasi shakllanmoqda. Mikrosirkulyator oqimning qon tomirlari bo'shab, devorlari yupqalashgan. Terining chuqur qavatlari zichlashadi va yo'g'onlashadi. Jun piyozchalari sekin shakllanadi, ko'p hollarda ular tarmoqlanadi.

2.5.3. Kasallangan itlalar qonini tekshirish natijalari

Nazoratdagi hayvonlardan tajribagacha va tajribaning 5–10 va 15-kunlarida qon olinib, qondagi ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlar tekshirib borildi.

Nazoratdagi hayvonlar qonidagi eritrotsitlar soni tajribaning 5 kunida 2,7%ga, 10 kunida 3,7%ga va faqatgina 15 kuniga kelib 20,3%ga oshganligi qayd qilindi (10–jadval).

Qondagi leykotsitlar soni kuzatishlarning 5–kunida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 1,5%ga oshgan bo'lsa, tajribaning 10 kuniga kelib 6,2%ga, 15 kuniga 10,9%ga va 15 kunga kelib esa 39%ga oshganligi kuzatildi.

Qonda gemoglobinning konsentrasiyasi tajribaning dastlabki kunlari unchalik o'zgarmagan bo'lsada, tajribaning 15 kunga kelib esa dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 16,6%ga oshganligi aniqlandi.

Limfotsitlar tajribaning 5 kunida 4,2%ga kamaygan bo'lsa, tajribaning 10 kuniga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 16,6%ga, 15 kunga kelib 37,5%ga oshganligi qayd qilindi.

Tajriba guruhdagi hayvonlarda tajribaning 5 kunida eritrotsitlar soni dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 24%ga oshgan bo'lsa, davolashning 10 kuniga kelib 29%ga, 15 kuniga kelib 42%ga oshganligi aniqlandi.

Qondagi leykotsitlar soni bu guruhdagi hayvonlarda davolashning 5 kunida 12%ga, 10 kunida 36,9%ga, 15 kuniga kelib esa 32%ga oshganligi kuzatildi. Xuddi shunday o'zgarishlar qondagi gemoglobin miqdorida ham aniqlanib, bunda tajribaning 5 kunida ular miqdori 33%ga oshgan bo'lsa, davolashning keyingi, ya'ni 10 kunida 36%ga, 15 kuniga esa 42,5%ga oshdi.

Tajriba guruh hayvonlari qonidagi limfotsitlar miqdori ham tajribaning 5 kunida 3%ga oshgan bo'lsa, 10 kunga kelib esa 15,3%ga, 15 kunda 30,7%ga ko'paydi (11 – jadval). Olingan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, konservativ usullar bilan davolangan hayvonlarning qonidagi morfologik ko'rsatkichlarga nisbatan, operativ usullar bilan davolangan guruhdagi qonning morfologik ko'rsatkichlari tajriba davomida yaxshilanib borganligi kuzatildi.

Nazorat guruhdagi itlarning qonidagi morfologik ko'rsatkichlar

№	Ko'rsat- kichlar	Biometrik ko'rsat- kichlar	Tajriba boshida	Tajriba kunlari		
				5	10	15
1	Eritrotsit, mln/mkl	$M \pm m$ %	$5,40 \pm 0,2$ 100	$5,55 \pm 0,4$ 102,7	$5,60 \pm 0,3$ 103,7	$6,50 \pm 0,1$ 120,3
2	Leykotsit, ming/mkl	$M \pm m$ %	$6,40 \pm 0,2$ 100	$6,50 \pm 0,1$ 101,5	$6,80 \pm 0,4$ 106,2	$8,9 \pm 0,2$ 139
3	Gemoglobin g/l	$M \pm m$ %	$7,8 \pm 0,1$ 100	$8,1 \pm 0,3$ 103,8	$8,3 \pm 0,7$ 106,4	$9,1 \pm 0,2$ 116,6
4	Limfotsit, %	$M \pm m$ %	$24 \pm 0,1$ 100	$23 \pm 0,2$ 95,8	$28 \pm 0,5$ 116,6	$33,0 \pm 0,1$ 137,5

Tajriba guruhdagi itlarning qonidagi morfologik ko'rsatkichlar

№	Ko'rsat- kichlar	Biometrik ko'rsat- kichlar	Tajriba boshida	Tajriba kunlari		
				5	10	15
1	Eritrotsit, mln/mkl	$M \pm m$ %	$5,56 \pm 0,10$ 100	$6,90 \pm 0,3$ 124	$7,23 \pm 0,2$ 129	$7,90 \pm 0,3$ 142
2	Leykotsitmi ng/mkl	$M \pm m$ %	$5,5 \pm 0,12$ 100	$6,16 \pm 0,03$ 112	$7,53 \pm 0,1$ 136,9	$7,60 \pm 0,2$ 132
3	Gemoglobin , g/l	$M \pm m$ %	$8,0 \pm 0,8$ 100	$10,7 \pm 0,7$ 133	$10,9 \pm 0,3$ 136	$11,4 \pm 0,4$ 142,5
4	Limfotsit%	$M \pm m$ %	$26 \pm 0,85$ 100	$27 \pm 0,8$ 103	$30 \pm 0,7$ 115,3	$34,0 \pm 0,4$ 130,7

2.6. ISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Abduraxmonov T.A., Davlatov R.B. (2004); Ginzburg A.G. (2005); Popov N.A.(2005); Shakirov F.K., Udalov V.A., Gryadov S.I. i dr. (2006).

Xozirgi zamonda veterinariya xizmati chorvachilikdan yuqori sifatli va mo'1 mahsulot olish yoki xizmat hayvonlarini sog'lom o'stirish uchun yo'naltirilishi kerak. Veterinariya tadbirlarining samaradorligini iqtisodiy analiz qilish katta ahamiyatga ega, uning asosida hayvonlarning kasalliklarini va o'lim bilan tugaydigan xolatlarini kamaytirish, davolash ishlarning samarasini oshirish, kasallik vaqtini kiskartirish, chorvachilik, sog'lom hayvonlar podasini tashkil qilish yotadi.

Veterinariya faoliyati yo'nalishlarining ko'pligi, veterinariya tadbirlarining xartamonlama yo'nalishi, iqtisodiy ko'rsatkichlar sistemasini tashkil qilishini taqozo etadi, bu esa veterinariya mutaxassislari ishining samaradorligini aniqlashga yordam beradi va shuning bilan birgalikda hayvonlarda uchraydigan kasalliklarga qarshi kurashish chora–tadbirlarini ishlab chiqishni asoslab beradi.

Xozirgi vaqtda hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni, ular natijasida o'limining oldini olish, sog'lomlashtirish, davolash tadbirlar, chorva majsulotlarini nobut bo'lishidan zararni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar taklif kilingan: xaqiqiy va bartaraf etilgan zarar, veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi, 1 so'm xarajatga samaradorlik va boshqalar.

Iqtisodiy zarar bu hayvonlarning kasalliklari bilan bog'lik bo'lgan zararni pul shaklidagi ifodasi.

Bartaraf etilgan zarar bu veterinariya tadbirlarini iqtisodiy natijasini belgilovchi va kutilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori.

Veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun xarajatlar – bu ularni o'tkazish bilan bog'lik bo'lgan barcha xarajatlar mikdori.

Itlardagi dermatitni davolash uchun quyidagi xarajatlar ketadi.

1. Bartaraf qilingan zarar:

$$B_z = X_s \times T_n - P_m$$

X_s – hayvonlarning soni

Tn – hayvonning o‘rtacha tannarxi

Pm – majburan so‘yilishi yoki sotilishidan olinadigan pul miqdori

$B_z = 6 \times 200000 = 1200000 - 300000 = 900\,000$ so‘m

2. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash:

$I_s = B_z - V_x$

Bz – bartaraf qilingan zarar

Vx – veterinariya xarajatlari – 90000 so‘m

$I_s = 900\,000 - 90000 = 810000$ so‘m

3. Veterinariya tadbirining 1 so‘m xarajatiga iqtisodiy samaradorligi:

$I = I_s : V_x$

$V_x = 90000$

$I_s = 810000$

$I = 810000 : 90000 = 9$ so‘m

Itlardagi dermatitni davolashda 1 sum xarajatga 9 so‘m iqtisodiy samaradorlik olindi.

II bob bo‘yicha xo‘losa

1. 2014 va 2015 yillarda 501 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlarni tekshirish natijasida 124 (24,75%) tasida teri kasalliklari aniqlandi. Shulardan 16,55% ni dermatitlar, 7,1% ni zkhemalar va 1,1% ni aknelar tashkil qiladi.

2. Qon – cho‘p o‘simligidan tayyorlangan davolovchi vosita itlardagi dermatitlarni davolashda samara beradi. Uning 10% li damlamasi dermatitni 9–11 kunlarda davolashga imkoniyat beradi.

3. Qon – cho‘p o‘simligidan tayyorlangan 25% li malham tuzalish muddatini 5–7 kunlarga qisqartiradi.

4. Kasallikni davolashning turli bosqichlarida teridagi zararlangan sohalarini gistologik tekshirish natijalari ko‘rsatishicha qon – cho‘pning 25% li malhami 10% li damlamasiga nisbatan tuzalishga o‘rtacha 4 kun avval olib keladi.

5. Dermatit kasalligiga chalingan itlarni gematologik tekshirish usullari ko‘rsatishicha qon – cho‘pning 25% li malhami 10% li damlamasiga nisbatan gematologik ko‘rsatkichlarni tezroq yaxshilanishini ta‘minlaydi.

6. Itlardagi jarohatlarni qon – cho‘p o‘simligidan tayyorlangan davolovchi vosita bilan davolashda 1 sum xarajatga 9 so‘m iqtisodiy samaradorlik olinadi.

III. TADQIQOT NATIJALARI BO'YICHA MULOHAZALAR

Hayvonlar orasida xirurgik kasalliklar keng tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Bu zarar qo'yidagilardan kelib chiqadi: uzoq vaqt davolanishi, ko'p dori – darmonlar qo'llash va xizmatdan ozod etish. Hayvonlar patologiyalari orasida yuqumsiz kasalliklaridan keyin yetakchi o'rinlardan birini jarrohlik kasalliklar egallaydilar.

Olingan ma'lumotlar analizi ko'rsatishicha, umumiy jarrohlik patologiyadan 2007 yilda jarohatlar 40% ni, 2008 yilda 43,1% ni, 2009 yilda 47% ni tashkil qilgan (T.T. Bitsiyev, 2012).

Bizlar olgan tekshiish natijalariga yaqin. Jami 2014 va 2015 yillarda 501 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlarni tekshirdik. Jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 185 (36,93%) jarohatlarga, 141 (28,14%) yallig'lanish jarayonlar va o'smalarga, 124 (24,75%) teri kasalliklariga, 51 (10,18%) suyak sinishlariga to'g'ri keladi.

P.Ye. Ignatov, 1995; V.A. Lukyanovskiy, 1995); R.M. Vasilyev (1998); V.A. Lukyanovskiy (1995) lar takidlashicha oxirgi yillarda mayda uy hayvonlarning (it va mushuklar) populyasiyasi sezilarli ko'paymoqda va bu hol ayniqsa katta shaharlarga tegishlidir. Chegaralangan maydonda hayvonlarning katta konsentrasiyasi ular orasida turli kasalliklar tarqalishiga olib keladi, bunda teri kasalliklari katta foizni egallaydi. Bu kasalliklar orasida eng ko'p piodermiya, dermatomikoz, allergik dermatitlar uchraydi.

Har xil mualliflar ma'lumotlari bo'yicha (A. A. Arxipov, A.B. Korobov, 1999; P.M. Vasilyev, 1999; M. Nagata, 2000; Ye.A. Tarasova, 2005) hayvonlarning barcha kasalliklari orasida jarrohliklari 40% ni tashkil qiladi va shulardan itlar terisining kasalliklari 22,5 dan 60–70% gacha yetadi. Teri va uning hosilalari doimo tashqi muhitning har xil ta'sirlariga chalinadi. Ularning ko'pchiligi terida turli patologiyalar rivojlanishini chaqirishi mumkin (A.B. Sganko, 2000).

Bu ma'lumotlarni biz olgan statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi. 501 ta jarrohlik kasalliklarga chalingan itlardan 124 (24,75%) tasida teri kasalliklari

aniqlandi. Shulardan 16,55% ni dermatitlar, 7,1% ni ekzemalar va 1,1% ni aknelar tashkil qiladi. Itlardagi jarrohlik kasalliklaridan jarohat, yopiq mexanik shikastlanish, uchinchi qovoqning yallig'lanishi, teri va quloq kasalliklari, stomatit, o'smalar tez – tez uchrab turadi. Bu kasalliklar hosil bo'lishiga itlarni noto'g'ri saqlash va oziqlantirish, urishtirish, avtohalokatlar, irsiy nuqsonlar sabab bo'ladi.

Ye.V. Shabalina (2009) ta'kidlashicha dermatitlar asosan 5 yoshgacha bo'lgan va kamroq hollarda katta yoshli itlarda kuzatiladi. Bu kasallik qandaydir bir jinsda ko'proq uchrashi aniqlanmadi. Ekzemalar barcha yoshdagi hayvonlarda uchraydi, ammo 2–3 yoshli urg'ochilarda va 2–9 erkak itlarda ko'proq qayd etildi. Erkak itlarda ekzemalar 1,5 marta ko'proq kuzatiladi. Zararlanish lokalizatsiyasi doimiy joyga ega bo'lmay, turli sohalarda rivojlanadi. Ekzema va dermatitlar ko'pincha metislarda rivojlanadi.

Bizlar tekshirgan itlarda dermatitlar asosan 4 yoshgacha bo'lgan va 2 holatda katta yoshli itlarda kuzatildi. Bu kasallik barcha jinsga mansub itlarda kuzatildi. Ekzemalar esa 2–3 yoshli urg'ochilarda va 2–9 erkak itlarda ko'proq qayd etildi.

http://callisia.org/cistotel_dir/; <http://plantsplanet.org/blogs/medicatives>

Qon – cho'p (chistotel; callisia) halq tabobatida avvaldan teridagi har xil o'smalarini bartaraf etish uchun qo'llanib kelinadi, ammo hozirgi paytda uning imkoniyatlari ancha keng ekanligi aniqlangan.

Qon – cho'p tarkibiga ko'p miqdorda zaharli moddalar, organik kislotalar, A va C vitaminlari, boshqa biologik aktiv moddalar va efirli moddalar kiradi. Qon – cho'pdagi 5 ta zaharli moddalar – alkaloidlar mavjud. Har bir alkaloid organizmga o'ziga hos ta'sirga ega va ularning katta miqdori bu ta'sirni juda havfli qiladi.

Ammo kam miqdorda aynan shu moddalar qon – cho'pning dorivor sifatini ta'minlaydi. Turli dermatologik kasalliklarida esa u almashtirib bo'lmaydigan vositadir.

Qon – cho‘p ko‘p teri kasalliklarida qo‘llanadi, u qichishishga va yallig‘lanishga qarshi, epitelizasiyani jadallashtiruvchi, antimikrob, fungisid, og‘riqni pasaytiruvchi ta’sirga ega (A.A. Krilov, V.A. Marchenko, N.P. Maksyutina va boshq., 1991; D.T. Jogolev, L.L. Galin, I.I. Dobroserdova, 1994).

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra (A.N. Alefirov, 2002; R.A.Xasanova, 2005; A.V. Sapojnikov 2006; Gautam Dantas, Morten O. A. Sommer, et.al. 2008; Gautam Dantas, Morten O. A. Sommer, et.al. 2008; A.B. Smirnov, 2010; G.V. Chermoshenseva, 2012) jarohatlarni davolash uchun har xil davolash usullari, o‘simliklardan olingan va kimyoviy terapevtik dori vositalari taklif qilingan masalan: yodiferin, etoniy gel, mefenat surtmasi, levomikol malhami, gomeonat va antigomotoksin preparatlari; balchiq Bagulnigi, tog‘ Arnikasi, Exinaseya. Bularni ta’sirida patologik jarayon o‘lgan to‘qimadan tez tozalanadi granulyatsion to‘qima o‘sishi tezlashadi, infeksiya bostiriladi yoki rivojlanmaydi.

<http://indasad.ru/lekarstvennye-rasteniya/3063-chistotel-lechebnie-svoystva> –i–protivopokazaniya-lechenie-chistotelom (N. V.Sokolova) taqidlashicha teri kasalliklarini davolash uchun Qon – cho‘p o‘simligining shirasi, damlamasi va malhami qo‘llanishi mumkin.

Bizlar o‘tkazgan tajribalarimiz bilan bu ma’lumotlarni tasdiqlaymiz, chunki patologik jarayon bitishi o‘lgan to‘qimalardan tozalanishi infeksiyaning rivojlanishini to‘xtatish va granulyatsion to‘qima o‘sishini tezlashtirish lozim bo‘lgan. Buning uchun biz o‘z tadqiqotlarimizda dermatit bilan kasallangan itlarni davolashda qon – cho‘pning 25% li malhamini va 10% li damlamasini qo‘lladik. Dermatit bilan kasallangan itlarni davolashda qon – cho‘pning 25% li malhami (tajriba guruhi) nisbatan yuqoriroq terapevtik samaraga ekanligini ko‘rsatdi. 25% li malham bilan davolashning birinchi kunlaridan boshlab kasal hayvonlardagi klinik holat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi.

Masalan, qichishish alomatlari kasallikning 1–2 kunlaridan yo‘qola boshladi, terining giperemiyasi 3–4 kunlarda yo‘qoldi, dermatit o‘chog‘idagi ekssudatsiya 3 kundan so‘ng to‘xtadi va teri shishi 5–6 kunlarda pasaydi. 10–15 kunlardan so‘ng terining jun qoplamasi tiklana boshladi.

25% li qon – cho‘p malhami bilan davolangan itlarda nazorat guruhidagi itlarga nisbatan klinik holatidagi o‘zgarishlar o‘rtacha 4 kunlar avval yaxshilanishga boshladi.

Dermatitlarni davolash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari ko‘rsatishicha, qon cho‘pdan ishlab chiqilgan dori vositasi bu jarayonni 9–10 kunlarda bartaraf etishga imkon yaratadi. Bunda uning 25% li malhami tuzalish muddatini 5–6 kunlarga qisqartiradi.

Gistopatologik tekshirishlar natijalari

Tajriba guruhidagi hayvonlarni 25% li qon – cho‘p malhami bilan davolaganda patologik jarayon atrofidagi terida o‘ziga hos reaksiya kechadi, ya’ni epidermis o‘sadi va terining biriktiruvchi – to‘qimali asosi sal shishadi. Mikrosirkulyar oqim tomirlari hosil bo‘lib, granulyatsion to‘qima rivojlanib boshlaydi. Epidermis tiklanishi uning patologik jarayonning chetlarida saqlanib qolgan joylardan boshlanadi. Bazal qavatning hujayralari ko‘payib, epidermisdan holi yuzaga siljiydi, chunki bu yerda hujayrali detrit ularga halaqit bermaydi.

Yangi hosil bo‘lgan hujayralar dastlab bir qator bo‘lib joylashib, bazal qavatni hosil qiladi. Keyinchalik, bu qavatning hujayralari bo‘linishi natijasida ko‘p qavatli yassi epiteliy hosil bo‘ladi. Elastik tolalar yaxshi ko‘rinmaydi va ular tabiiy holatigacha rivojlanmaydi.

Regenerasiya alohida epitelial so‘rg‘ichlar tomonidan boshlanadi, chunki dermada ular yuqori qavatlarga nisbatan ko‘proq yetilgan bo‘ladi. To‘qimalar shishi saqlanib qolgan.

Keyinchalik, davolashning 6 – kuniga borib, zararlangan joyda epidermisning barcha qavatlarida epitelial qavat aniq ko‘rinadi, ammo muguz modda va muguzlashgan hujayralar yetarlicha ifodalanmagan. Teri asosidagi alohida epitelial hosilalar asta – sekin so‘rilib, nisbatan tekis yuzani hosil qilgan. Epidermisning bazal qavatga yopishib turgan biriktiruvchi to‘qimali tolalarning kollagenizasiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi, yosh biriktiruvchi to‘qima ko‘rinadi.

Jun tolalari qinlarining yo‘nalishi bo‘ylab yaqqol keratinizasiya rivojlangan. Biriktiruvchi to‘qimaning tolalari kuchsiz gialinizasiyaga uchrab,

tuzilishi va ko‘rinishi bo‘yicha bir xil bo‘lib qolgan. Yosh granulyatsion to‘qimada asosan fibrosit va fibroblastlar namoyon bo‘ldi. Shish asta – sekin yo‘qolib, yangi hosil bo‘lgan tomirlar miqdori ko‘payib bormoqda. Terining alohida joylarida avval qayd etilgan epidermisning nuqsonlari uning o‘rish qavatidagi hujayralar proliferatsiyasi hisobidan tezda tiklanib kelmoqda. Undan tashqari, bu sohada mitoz shakllarining ko‘payishi kuzatiladi.

Nazorat guruhidagi hayvonlarni 10% li qon – cho‘p qaynatmasi bilan davolaganda terining regeneratsiyasi sekinroq kechgan. Birinchi bosqichda mikroskopik manzarada yangi rivojlanib kelayotgan yassi epiteliy noziklanishi va zararlangan yuzaga seroz suyuqlik sizib chiqishi kuzatiladi. Regenerativ jarayonlar sust ifodalangan. Yosh hujayralar qavati chegaralangan. Chuqurroq qavatlarda seroz ekssudat to‘planishi va venoz giperemiya kuzatildi. Ko‘p miqdorda vaskulyarizatsiyalashgan hujayralar to‘planadi. Perevaskulyar shish rivojlanadi va tomirlar atrofida limfoid hujayralar to‘planadi. Vakuolli distrofiya holatida bo‘lgan hujayralardan tashqari ko‘p yog‘ hujayralar topiladi. Jun piyozchalarining chegaralari noaniq bo‘lib, yog‘ to‘qimasi bilan o‘ralgan, muskul tolalari donador distrofiya holatida.

Regeneratsiyaning o‘rta bosqichida hosil bo‘lgan qoraqo‘tir serozli ekssudatga to‘yingan bir xil oksifil massa sifatida, ichi kovakli bo‘ladi. Qoraqo‘tirdagi hujayrali elementlar (asosan leykositlar va makrofaglar) parchalanish holatida bo‘lib, yaqqol ko‘rinmaydi. Hujayrali detrit asosan bir xil bazofil massa ko‘rinishida. Epiteliya yaxshi rivojlanmagan va sust tiklanadi, uning regenerativ xususiyatlari pasaygan. Qon tomirlar kam to‘lgan.

10–kunga borib regenerativ jarayonlar nisbatan kuchliroq ifodalanadi. Ko‘p miqdorda yosh biriktiruvchi to‘qimali hujayralar ko‘rinadi. Ular asosan fibroblastlar bo‘lib, oralarida leykositlar joylashgan. Granulyatsion to‘qima zonasi shakllanmoqda. Mikrosirkulyator oqimning qon tomirlari bo‘shab, devorlari yupqalashgan. Terining chuqur qavatlari zichlashadi va yo‘g‘onlashadi. Jun piyozchalari sekin shakllanadi, ko‘p hollarda ular tarmoqlanadi.

Belov A.D., Plaxotin M.V., Bashkirov B.A. va boshq (1990), T.T. Bitsiyev, (2009, 2010, 2012) lar takidlashicha dermatitning kechishi va davolanishi jarayonida qonda sezilarli o'zgarishlar ko'zatiladi, ya'ni eritrotsitlar va gemoglobin miqdori kamayib, leykositlar, ayniqsa tayoqcha yadrolilar miqdori ko'payadi.

Bizlar o'tkazgan tajribalar bu ma'lumotni tasdiqladi, kasallik rivojlanish fazasida eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining kamayishi $5,56 \pm 0,10$ mln/mkl, $8,0 \pm 0,8$ g/l, leykotsitlar kamayishi $5,50 \pm 0,12$ ming/mkl. Tiklanish fazasida bu ko'rsatkichlarning ko'payishi aniqlandi $7,23 \pm 0,2$ mln/mkl, $10,9 \pm 0,3$ g/l, $30 \pm 0,7$ mln/mkl gacha. Bu esa bitish jarayoniga mos ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi.

III bob bo'yicha xulosa

